O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UDK: 01 UM FT PP

**Magistratura bulimi**

**"Umumiy fizika" kafedrasi**

**Toshev Ixtiyor Izzatovich**

**"Umumiy fizika praktikum ishlarini ijodiy tajribalar imkoniyatlari bilan uyg'nligini ta'minlashning didaktik asoslari" mavzusidagi**

# Magistirlik dissertatsiyasi

**DAKda himoya qilishga ruxsat berilgan.** **Ilmiy rahbar dots.A. A .Ahmedov**

**Magistratura bulimi boshlig'i**

**f.f.n.K.N.Qodirov**

**Kafedra mudiri dots.A. A .Ahmedov**

**Navoiy-2011**

M U N D A R I J A

Kirish.................…………………………………………………………………...... 3

**I.1.** Ta’lim jarayonida eksperimental ko’nikmalarni shakllantirishning psixologik jihatlari ………………………………………………………………………........ 10

**I.2.** Bulajak fizika o’qituvchilarining eksperimental ko’nikmalari mazmuni va tavsifi………….....................................…………………………………….....… 13

**I.3.** Fizikadan bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashga innovatsion yondashuvlar…...**18**

**II BOB. Fizikadan bakalavr o’qituvchilarini tayyorlash jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ayrim xususiyatlari**

**II.1.** Fizikadan bakalavr o’qituvchilarini tayyorlash jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ayrim xususiyatlari**...........................................40**

**II.2.**Fizikadan bakalavr o’qituvchilari innovatsion faoliyatini tashkil etish...............**43**

**II.3.**Fizikadan bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil etish...........................................**46**

**II.4.**Fizikadan bakalavr o’qituvchilarining metodik maxoratini oshirish.......**50**

III BOB.**Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, mashg’ulotlarni tashkil etish**

**III.1.**Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, mashgolotlarni tashkil etish**............ 54.**

**III.2.**Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, mashg’olotlarni tashkil etish**.............56**

**III.4.**Fizikadan bakalavr o’qituvchilarining texnologik loyihalash qobiliyatiga qo’yiladigan talablar va ularni baxolash.......................................**77**

Xulosa…………………………………….....………………….. **………….81**

**.Foydalanilgan adabiyotlar……………………………………...…………… …82**

# KIRISH

Respublikamiz Prezidenti I.Harimov "O’zbekiston o’qituvchi va murabbiylariga" bag’ishlangan 2010 yil 30 sentyabrdagi ma'ruzasida shunday gaplarni aytgan edi: Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning **"Muallim zoti ezgulik va ma'rifat yo’lining beminnat charog’bonidir"** degan hikmatli so’zlar beixtiyor yodimizga tushadi. Bunday yuksak va haqqoniy baholar farzandlarimizni jismoniy va ma'naviy yetuk, barkamol insonlar etib o’stirish, voyaga yetkazishdek ezgu va ma’suliyatli ishni o’z zimmasiga olgan yurtimizdagi ming-minglab jonkuyar ustoz va murabbiylar, hurmatli domlalarimiz sha'niga munosib ekanini barchamiz bugun chuqur anglaymiz.

Haqiqatan ham, ko’z nuri va qalb qo’rini, butun ongli hayotini yosh avlodga tarbiya berishga, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga bag’ishlagan, bir so’z bilan aytganda, Vatanimiz ertangi kunining poydevorini yaratayotgan siz azizlarning kundalik olijanob mehnatingiz oldida ta'zim etsak arziydi albatta.

Biz mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta'lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an'analarimizga, ilg’or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ta'lim-tarbiya sohasiga ustivor ahamiyat qaratib, bor kuch va imkoniyatlarimizni shu yo’lda safarbar etmoqdamiz.

Mohiyati va ahamiyatiga ko’ra chindan ham noyob «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va uning uzviy davomi bo’lgan «Ta'limni rivojlantirish dasturi» bugungi kunda hayot sinovidan o’tib, o’z hosilini berayotgani, halqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotgani barchamizga haqli ravishda g’urur, iftixor bag’ishlaydi. Albatta, oldimizda turgan ezgu maqsadlarimizga erishish yo’lida yaratilgan barcha keng imkoniyatlar e'tirof etilayotgan bir paytda, biz, eng avvalo, bunyod etilayotgan sharoitlarga bamisoli jon va kuch berayotgan, ularni ishga solayotgan muallim va murabbiylarning og’ir va mas’uliyatli mehnatining o’rni va ahamiyatini chuqur anglab, ularni munosib qadrlash va baholash barchamizning doimiy e'tiborimiz markazida turishi lozimligini yaxshi tushunamiz.

Rasmiy ma'lumotlarga ko’ra, so’nggi yillarda pedagogika yo’nalishi bo’yicha oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirayotgan abiturientlar soni eng yuqori ko’rsatkichni, ya'ni 22,6 foizni tashkil etmoqda. Agarki, bu nimaning dalolati, deb so’rasa, men, bu birinchi navbatda, mamlakatimizda o’qituvchilik chindan ham sharafli kasbga aylanayotgani, yoshlarimiz o’z o’rnim, o’z baxtimni aynan shu kasb orqali topaman, deb astoydil intilayotganining dalolatidir, deb aytgan bulardim.

Biz mamlakatimizni modernizatsiya qilish, hayotimizni yanada erkinlashtirish hisobidan dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar qatoriga kirishni o’z oldimizga buyuk maqsad qilib qo’ygan ekanmiz, ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlarni aslo bo’shashtirmasdan, yangi va yuksak bosqichga ko’tarishni zamonning o’zi talab etmoqda. Uzluksiz ta'limning poydevori hisoblangan oliy ta'limni rivojlantirish, jamiyat va shaxs ehtiyoj-larini to’laqonli qondirish hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilariga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratish maqsadida qabul qilingan qator hukumat qarorlari oliy ta'lim

sohasida amalga oshirilayotgan rivojlanish va o’zgarishlarga asos bo’lish bilan birgalikda mazkur sohaning o’qituvchilariga o’ziga xos talablarni belgilab berdi.

Oliy ta'limni rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining asosiy maqsadi va vazifalaridan biri — ta'lim muassasalarini malakali o’qituvchilar bilan ta'minlash, ularning salohiyatini oshirish, o’qituvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirishdir. Mazkur tamoyilga jiddiy munosabat bilan e'tibor qaratadigan bulsak, o’qituvchilar uchun juda katta mas'uliyat, talablar, vazifalar va ishonch mavjudligini e'tirof etamiz.

Yurtimizda boshlangan islohotlar jarayonini izchillik bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazish muammolarining asosiy yechimlaridan biri — malakali, fidoyi bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashdir. Bunda ularga quyidagi asosiy talablar qo’yiladi: har bir bakalavr o’qituvchisining o’z kasbiga bo’lgan ma’suliyatini tubdan o’zgartirish, ularda tashabbuskorlik — pedagogik faoliyatga bo’lgan ijodiy munosabatni shakllantirish, shaxsiy javobgarligini oshirish; ularning o’z sohasida kompetentli, ya'ni o’z ishining ustasi bo’lishi, o’z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilishi zarurligi.

Mazkur fikrga asoslanib aytish mumkinki, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar o’qituvchilar tayyorlovchi pedagogika yo’nalishidagi oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonini ham qayta ko’rib chiqishni taqqazo etadi. Chunki, hozirgi kunda bu ta'lim muassasalarida yaratilayotgan sharoitlar, zamonaviy o’zgarishlar barcha imkoniyatlardan foydalana oladigan, o’ziga va o’z ishiga nisbatan talabchan, muassasa, oila va mahalla hamkorligini yo’lga qo’ya oladigan, o’z ishining ustasi bo’lgan, o’z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o’zini-o’zi rivojlantiruvchi hamda o’z qobiliyati va imkoniyatlarini to’la ishga sola biladigan o’qituvchilarning faoliyat ko’rsatishini talab qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, bakalavr o’qituvchilari tayyorlash faoliyatini rivojlantirishga yo’naltirishda quyidagi talablarni belgilaydi: bakalavr o’qituvchilari tayyorlash faoliyati va uning me'yoriy-huquqiy asoslarini, innovatsion ta'lim texnologiya (ITT)lar asosida bakalavr o’qituvchilarini tayyorlash metodlari, usullari, vositalari va shakllarini, motivlashtirish nazariyalari va o’qituvchilar tayyorlash faoliyatini baholash turlarini bilish; ta'lim olishga bo’lgan tashabbuskorlik-ijodiy munosabatni shakllantirish, maqsadga erishishda o’qituvchilar ehtiyojlarini hisobga olish, ish vaqtidan unumli foydalanish imkoniyatlarini yaratish; guruhlararo eng maqbul aloqalarni vujudga keltirish va qo’llab-quvvatlash, har bir bulajak bakalavr o’qituvchisining aqliy va axloqiy salohiyatini namoyon etishiga sharoitlar yaratish; ularning bilim olish natijalaridan qoniqish hosil qilishlariga erishish; ularni tayyorlashda ITTni loyihalashtirish va amaliyotga tatbiq; etish.

Kuzatishlar shuni ko’rsatmoqdaki, oliy ta'lim amaliyotida tayyorlanayotgan bakalavr o’qituvchilarining ko’pchiligida o’z yo’nalishi bo’yicha zaruriy bilim, kasbiy faoliyat tajribalari, pedagogik mahorat, ko’nikma va malakalarning yetarli darajada emasligi ta'lim jarayonini boshqarishda muammolarning vujudga kelishiga sabab bulmoqda.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi va natijalari**:

-umumiy fizika praktikumlarida bulajak fizika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga imkon beradigan va zamonaviy talablar asosida shakllanishi zarur bo'lgan eksperimental ko'nikmalariga qo'yilgan talablar ishlab chiqildi;

-bulajak fizika o'qituvchilarida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan laboratoriya topshiriqlarining mazmuni va tizimi, ularni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatmalar ishlab chiqildi;

-talabalarda eksperimental ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlash mezoni yaratildi.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati:** bulajak o'qituvchilarning eksperimental ko'nikmalarini shakllantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdagi asosiy yo'nalishlardan biri ekanligi ilmiy-nazariy va metodik jihatdan asoslandi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** ta'limning turli bosqichlarida tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida, amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha talabalarning eksperimental ko'nikmalarini shakllantirishda, laboratoriya mashg'ulotlariga oid o'quv-metodik qo'llanmalar va tavsiyalar yozishda, shuningdek magistrantlar, aspirantlar va yosh tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida ushbu tadqiqot ishining natijalaridan foydalanish imkoniyati yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishi xulosalarining **ishonchliligi** va **asoslanganligi:**

-tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan fizika bo'yicha tasdiqlangan davlat standartlari va unga mos o'quv dasturlari asosida olib borilganligi;

-ishda tadqiqot maqsadlariga oid tanlangan ilmiy pedagogik metodlardan unumli foydalanilganligi;

-pedagogik tajribalar zamonaviy ilmiy-metodik va metodologik talablar asosida o'tkazilganligi;

-tajriba-sinov ishlari natijalarining mavjud matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilinganligi;

-miqdoriy va sifatiy tahliflarning uyg'unligi bilan belgilanadi.

## 1.1. Ta’lim  jarayonida eksperimental ko’nikmalarni shakllantirishning psixologik jihatlari

O’qituvchilik, ustoz-murabbiylik kasbi har doim barcha halqlarda eng qadimiy va ardoqli kasblardan biri hisoblangan. U insonning shaxsiy sifatlariga, qobiliyati va qiziqishlariga, xarakteriga, bilim, ko’nikma va malakalariga yuqori talablar qo’yadi. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi qonunida «Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqiga ega» deb ta’kidlangan [3]. Bu pedagogika o’quv yurtlarining barcha tizimlarida talabalarni pedagogik faoliyatga kasbiy, shuningdek shaxsiy-psixologik nuqtai-nazardan tayyorgarlik sifatini oshirish mas’uliyatini yuklaydi. Pedagogika fanining jadallik bilan rivojlanishi, ta’lim vazifalarining murakkablashishi davrida bulajak o’qituvchida kasbiy-pedagogik sifatlarning shaxsga yo’naltirilgan holda shakllanishiga ko’p jihatdan bog’liq. Bulajak o’qituvchining o’z tanlagan kasbiga, o’qitadigan predmetiga va o’quvchilarga sub’ekt sifatida munosabatlari tizimi uning pedagogik faoliyatining sifatini  belgilaydi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim mazmuni, uning strukturasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, oliy maktab, ta’lim mazmunini zamonaviy bilimlar, maxsus malakali ta’lim bilan qurollantirib qolmay, fanlarning rivoji, ularning ilmiy-metodologik va g’oyaviy negizlari bilan tanishtiradi. Shu bois, oliy maktab tizimidagi ta’lim jarayonini ijodiy loyihalashtirish pedagogdan yuksak mahorat, qobiliyat talab etadi [3]. Ana shunday serqirra pedagogik komponentlardan biri - o’qituvchining eksperimentatorlik qobiliyatidir. Hozirgi davrda har bir shaxs, nufuzli bilim sohibi bo’lish bilan birga o’z kasbining mohir ustasi bo’lishi lozim.

Yosh, navqiron avlodning har biri o’z davri, zamonasi, o’zi mansub bo’lgan jamiyatga xos ijtimoiy tarixiy sharoitlarda yashaydi, o’sadi, kamol topadi. Insonning mehnati, hayotiy faolligi, hamda odamlar bilan muloqot-muomalasi uning kamoloti, xususan tarbiyasining asosini  tashkil etadi. Faoliyat, keng ma’noda inson sa’y-harakatlarining bir shakli ko’rinishi bo’lib, insonning ongli maqsad bilan boshqariladigan ichki (ruxiy) va tashqi faolligidir.

Mexnat qilish, o’qish-o’rganish, o’yin - inson faoliyatining asosiy turlari hisoblanadi va umrning muayyan davrida ulardan biri yuqori darajada  bo’ladi. Har qanday faoliyat, uni tashkil etuvchi sa’y - harakatlar tizimi haqidagi umumlashgan mavxum tasavvurdan iboratdir. Inson faoliyatining mohiyatini motiv, maqsad, shart - sharoit, harakat, jarayon kabi faoliyat strukturasini tashkil etuvchi elementlarni o’rganish orqali anglash mumkin.

Motiv-faoliyat boshlashga undovchi predmet; Maqsad - o’z vositasining  natijasi sifatida, faoliyatga yo’naltirilgan predmet; shart-sharoitlar - maqsadga erishish uchun ularga nisbatan faollik ko’rsatiladigan predmetlar; harakat - maqsadga yo’naltirilgan faollik; jarayon esa - sharoitga yo’naltirilgan faollikdir. Inson faoliyati jarayonining

mohiyati, avvalo, tashqi va amaliy, so'ngra esa ichki, ong, aqliy faoliyat shaklini oluvchi sa'y - harakatlardan iborat. Ehtiyoj ichki bir shart - sharoit sifatida insonning muayyan faoliyatini boshqarib va yo'naltirib turadi. Ta'lim, insonning yangi o'quv faoliyatini yuzaga keltiradi, o'qitish va o'rganishning o'zaro uyg'unligi asosida ma'rifiy munosabatlar o'rnatilishini aks ettiradi.

Ta'lim sifatiga tabiiy va ijtimoiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Alohida olingan individ hayotiy faoliyatini xarakterlab turuvchi tug'ma sifatlar majmui, tabiiy omillarni tashkil qiladi. Fiziologik, morfologik va boshqa sifatlar ham tabiiy omillar sirasiga kiradi.

Ijtimoiy omillar insonga uning shaxs sifatida, jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lib shakllanishida hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, tabiat tomonidan yoki tug'ma ravishda berilmaydi.

Bilimlarni o'zlashtirish insonning o'quv faoliyati jarayonida yuz beradi. Insoniyat to'plagan bilimlar, tushunchalarni individ tomonidan «meros» olib, o'zlashtirish asosida dono hatti - harakatlar sohibi bulmoqlik, sub'ektdan pinhoniy-yashirin harakatlardan so'zlar yordamidagi harakatlarga o'tishni, nihoyat, asta-sekinlik bilan ularni interiorizatsiya qilishni taqozo etadi. Natijada ular ongli harakatlarga aylanadi [60].

Shuni aytish kerakki, sub'ektning verbal harakatlari - bu o'quv ko'nikmasini tashkil etuvchi (o'quvchining tashqi faoliyati) harakatlardir. Aslida o'quv faoliyati, o'quvchilarning o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish jarayonida bilim egallashlariga qaratiladi. Bu ularga mazkur bilimlarning hosil bo'lish sharoitlarini ham anglash imkonini beradi. Psixologlar harakatni amalga oshirish usuli sifatida «jarayon» tushunchasini kiritganlar. Har bir jarayon dastlab muayyan maqsadga yo'naltirilgan harakat sifatida shakllanadi. Jarayonlarni anglab bajarish xususiyatiga qarab ko'nikma va malaka farqlanadi.Jarayonlar ongning borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli g'ayriixtiyoriy ravishda, ayrim mayda qismlarga e'tibor bermagan holda, ya'ni avtomatik ravishda amalga oshirilsa, bunga malaka deyiladi. Buning natijasida topshiriq ravon, ortiqcha kuch sarflamay, tez va sifatli bajarila boradi.

Agar jarayonlar anglab bajarilsa, u holda ***ko'nikma*** haqida gap boradi. Ko'nikmani malaka hosil qilishning birinchi bosqichi sifatida baholarkan ye.N.Kabanova-Meller [53], ko'nikmalarni ta'limiy ish uslublari asosida shakllantirish lozim, deb hisoblaydi. Ko'nikmalar asosini faqatgina ularga mos harakatlar emas, balki boshqa harakatlarni bajarishda hosil qilingan bilim va ko'nikmalar ham tashkil etishi mumkin.

**Ko'nikma** – insonning egallagan tajribalari asosida muayyan harakatlarni ma'lum darajada fikrlab amalga oshirish faoliyatidir.

Ko'nikmalar amaliy faoliyatga tegishli bo'lib, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma, faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda, harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga

yo’naltirilgan bo’ladi. Ko’nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqeilik to’g’ri aks ettirilgan mulohazalarda ifodalanadi. Ko’nikmalar esa, ko’proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi.

Fan asoslarini o’rganish vaqtida shakllanadigan va ularni muvaffaqiyatli o’rganish uchun kerak bo’ladigan ko’nikmalar ***o’quv ko’nikmalari*** deb ataladi. Umumiy o’quv ko’nikmalari - o’qish, yozish, javoblar rejasini tuzish, adabiyotlar bilan ishlash, mehnatni ilmiy tashkil qilishdir. Tabiiy-ilmiy yo’nalishdagi predmetlar uchun umumiy ko’nikmalar esa, o’quv adabiyotlar bilan ishlash, o’lchash, hisoblash, grafiklar chizish, jadvallar tuzish, kuzatish va tajribalar o’tkazishdir.

Harakatlarning muayyan narsaga yo’naltirilganiga qarab, ko’nikmalar umumiy va maxsus, intellektual va amaliy turlarga bulinadi. Bu bulinish, albatta, shartli xarakterga ega. Fizika ta’limida maxsus ko’nikma sifatida ***eksperimental ko’nikmalar*** qaraladi. Eksperimental ko’nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, ularni kelgusidagi o’qituvchilik faoliyatida foydalanishga o’rgatish, pedagogika oliy ta’lim muassasalari ta’limining asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Eksperimental ko’nikmalar deganda talabaning eksperimental tadqiqotni mustaqil bajarishini ta’minlovchi ko’nikmalar majmui tushuniladi. Bular: eksperimentni rejalashtirish, qurilmani konstruksiyalash va uni ishga tayyorlash, hodisani kuzatish, o’lchash ishlarini bajarish va b. Tadqiqotning har bir bosqichlari aniq xususiy ko’nikmalarni talab qiladi. Masalan, «Eksperimental qurilmani yig’ish» bosqichida talabalar quyidagi ko’nikmalarni namoyon qilishi lozim: 1) elektr zanjirini yig’ish; 2) shtativdan foydalanish; 3) kalorimetrdan foydalanish; 4) isitkich asbobidan foydalanish va h.k. O’z navbatida har bir xususiy ko’nikmalar bir qator sodda amallar – ko’nikma elementlariga bulinadi. Chunonchi, o’quv dinamometridan foydalanish ko’nikmasi quyidagi elementlarni o’z ichiga oladi: asbobning qaysi kattalikni o’lchashga mo’ljallanganligini bilish (kuchni o’lchash), asbob shkalasining bulimlar qiymati va o’lchash chegarasini aniqlash, o’lchash vaqtida dinamometrni to’g’ri joylashtirish, asbob ko’rsatishini hisobga olish va o’lchash xatoliklarini aniqlash

Eksperimental ko’nikmalar - bu o’ziga xos tizimdan iborat bo’lib, uni ***aqliy*** va ***amaliy*** faoliyat ko’rinishlari (turlari) bo’yicha klassifikatsiyalash mumkin (1-rasm). Har bir eksperimental ko’nikmani ma’lum hatti-harakatlar va jarayonlar tizimi yordamida ifodalash mumkin. Masalan, eksperimentni rejalashtirish (loyihalash) ko’nikmasi eksperiment natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish asosan intellektual (aqliy) amallardan iborat bulsa, o’rganilayotgan ob’ektni tanlash, asbob uskunalarni, jihozlarni tayyorlash, tajriba o’tkazish asosan amaliy harakatlar (amallar) dan tashkil topgan. Har bir eksperimental ko’nikma amallardan, amallar esa jarayonlardan iboratdir. Jarayon - ko’nikmaning eng kichik elementi bo’lib, jarayonni yana kichik qismlarga bo’lish maqsadga muvofiq emas




1-rasm.

Ta'limda ko'p sonli va ko'p qirrali ko'nikmalar shakllantirilgan bo'lishi lozim. Ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining samaradorligini orttirish uchun umumiy yoki o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan ko'nikmalarni guruhlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

Didaktikaga oid ishlarda ko'nikmalar umummantiqiy, umumilmiy, bibliografik va tashkiliy-ta'limiy guruhlarga ajratilgan

Bundan tashqari ko'nikmalar tarkibi va tuzilishi jihatidan - oddiy, murakkab, yuqori darajali; amal qilish chegarasiga ko'ra – tor va keng, umumiy va maxsus; o'quvda amal qilish vazifasi bo'yicha-tashkiliy, amaliy, intellektual, psixologik turlarga ajratiladi.

Psixologlar barcha o'quv fanlarini o'rganishda shakllanadigan ko'nikmalarni umumiy, muayyan o'quv fanlarini o'rganishda shakllanadiganlarini esa xususiy deb ikkiga ajratadi.

Fizika ta'limidagi ko'nikmalarning murakkabligi va ko'p qirraligiga qaramasdan, ko'nikmalar aniq ifodalangan uchta turga ajratilgan , ularni quyidagi 2-rasmdagi sxema ko'rinishida tasvirlash mumkin.




2 – rasm. O’quv ko’nikmalari turlari.

Bu sxemada ko’rsatilgan ko’nikmalar orasidagi aloqalar ular orasidagi murakkab o’zaro munosabatlarni to’liq aks ettirmaydi. Intellektual ko’nikmalarni umumo’quv va maxsus fizik ko’nikmalardan alohida ajratib bulmaydi. Intellektual ko’nikmalar umumo’quv va maxsus fizik ko’nikmalarning ichiga singib boradi, ularni shakllantirish uchun asos bo’ladi. Fizika o’qitish jarayonida har uchala ko’nikmalar parallel ravishda shakllanib boradi. Bu ko’nikmalardan birini e’tiborga olmaslik yoki yetarlicha baholamaslik, qolganlarining shakllanishini sezilarli darajada susaytiradi.

## 1.2. Bulajak fizika o’qituvchilarining eksperimental ko’nikmalari mazmuni va tavsifi

«Fizika va astronomiya» davlat ta’lim standartida ko’nikma va malakalarning turli ko’rinishlari keltirilgan. Lekin ularni shakllantirishda o’xshashlik, bir-biriga bog’lanishlik va izchillikni birdaniga kuzatish murakkab jarayon hisoblanadi Shu sababli, fizikaga xos muhim o’quv ko’nikmalarini tahlil qilish, turlarga ajratish, ularning mohiyati va o’zaro munosabatlarini aniqlash maqsadga muvofiq bo’ladi. Fizikadan o’quv ko’nikmalarini (xususiy, maxsus) shakllantirish jarayonini unumli qilish maqsadida ularni masalalar yechish, eksperimental, tadqiqiy (konstruktorlik) deb uch guruhga ajratib o’rganiladi.

Ushbu ishda fizikadan tajribalar o’tkazish va namoyish qilish, laboratoriya ishlarini bajarish va eksperimental masalalarni yechishda muhim ahamiyatga ega bo’lgan eksperimental ko’nikmalarni o’rganamiz. Eksperimental ko’nikmalarni shakllantirish jarayonini unumliroq qilish maqsadida, ularni turlarga ajratish asoslari tanlanishi lozim. Bunday asos sifatida umumdidaktik xarakterga ega bo’lgan quyidagilarni olish mumkin: 1) harakatlarni ko’chirish xarakteri; 2) ko’nikmaning tarkibi va tuzilishi; 3) xizmat vazifasi; 4) ko’nikmaning amal qilish doirasi. Ushbu asoslarni hisobga olgan holda, ko’nikmalar klassifikatsiyasini keltiramiz (3-rasm)

:




3- rasm. Fizikadan o’quv ko’nikmalari tarkibi.

Eksperimental ko’nikmalarni shakllantirish talabaning predmetli faoliyati bilan bog’liq. Predmetli faoliyat deganda esa, biz talaba va o’quvchilarning natural ob’ektlar (asboblar, fizik jismlar, narsalar to’plami va hokazo) bilan muomala qilishlarini tushunamiz. Shuningdek, predmetli faoliyatga ko’rgazmali (sxema, chizma, rasmlar va h.k.) va ba’zi belgili (asboblarning shartli belgilanishlari, ularning maketlari) ob’ektlar bilan ishlash ham kiradi. Bunda tabiiy ob’ektlar predmetli faoliyatda asosiy hisoblanib, tabiiy ob’ektlarning obrazi bo’lgan ko’rgazmali va belgi ob’ektlari esa yordamchi hisoblanadi.

Predmetli faoliyat intellektual ko’nikmalarga asoslanadi. Intellektual ko’nikmalar deb turli xil masalalarni hal qilishda aqliy amallarni (shakllangan) samarali bajarish qobiliyatiga aytiladi. Bunda mantiqiy amallarni bajarish ko’nikmasi haqida gap boradi. Mantiqiy amallarga taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish, klassifikatsiyalash, xulosalash kiradi. Bu ko’nikmalar bilimlarni amalda (praktikada) qo’llash uchun umumiy hisoblanadi . Shunday qilib bilimlar, eksperimental ko’nikmalar uchun bevosita, intellektual amallar orqali «ishlaydi». Intellektual ko’nikmalar o’quvchilarning aqliy faoliyatida shakllanca, eksperimental ko’nikmalar esa o’quv materialining mazmuni asosida asboblar bilan ishlashda egallanadi. Intellektual amallar asosida eksperimental ko’nikmalar shakllanadi, ayni bir paytda bu jarayon, ularning mazmun va sifat jihatidan kengayishiga olib keladi.

Ko’nikma, insonning faoliyat bajarish qobiliyatini tavsiflaydi. Gar shanday faoliyat esa amaliy extiyojdan kelib chiqadi. Shu sababli turli ko’nikmalarni, shuningdek intellektual ko’nikmani ham, amaliy ko’nikma deb atash mumkin .

Eksperimental ko’nikmalar bilan uzviy bog’langan va keng tarqalgan intellektual hamda umumo’quv ko’nikmalariga quyidagilar kiradi:

-tajriba asosida yotgan hodisani tahlil (analiz) qilish;

-tajribani (ishni) rejalashtirish;

-tajriba (ish) maqsadini ilgari surish, o’quv gipotezasini (taxminini) aniq ifodalash va asoslash (qurish);

-tajriba o’tayotgan sharoitni tahlil qilish;

-tajribaning borishini va natijasini oldindan ko’ra bilish;

-tajribadan (ishdan) hulosa chiqarish, laboratoriya ishining natijalarini aniq ifodalash;

-jadvallardan foydalanish;

-laboratoriya ishi bo’yicha hisobotni tayyorlash, jadval va grafiklar tuzish;

-darslik (kitob, metodik ko’rsatmalar) bilan ishlash;

-hisoblashlarni bajarish, fizik formulalardan foydalanish.

Intellektual, umumo’quv va xususiy ko’nikmalarni shakllantirish yaxlit faoliyatda, fizikadan o’quv materiali asosida amalga oshiriladi.

1-jadvalda turli faoliyatga tegishli eksperimental ko’nikmalar keltirilgan.

## Eksperimental ko'nikmalar

1-jadval

<table>
<tr><th rowspan="2">Tor</th><th colspan="2">Keng</th></tr>
<tr><th>Sodda</th><th>Murakkab</th></tr>
<tr><td>Qutblardagi kuchlanishga (EYUK) qarab tok manbaini tanlash.<br><br>Batareya va lampadagi kuchlanishlarni moslashtirish.<br><br>Tok manbai (tarozi, reostat) bilan ishlash qoidasiga rioya qilish.</td><td>Maqsadga, shkalalar chegarasi, o'lchanayotgan kattalik turiga qarab asbobni tanlash.<br><br>Asbobning pasportiga ko'ra uning asosiy ko'rsatkichlarini o'qish va foydalanish.<br><br>Asbob bilan ishlash qoidasiga rioya qilish.</td><td>Asboblardan foydalanish</td></tr>
<tr><td>Barometr bilan atmosfera bosimini o'lchaganda bosim birligini tanlash.<br><br>Bulimlar qiymatini aniqlash.<br><br>O'lchash chegaralarini aniqlash.<br><br>Barometr ko'rsatishlarini o'qish.<br><br>Sanash joyini tanlash.<br><br>Atmosfera bosimini o'lchash aniqligini oshirish.<br><br>O'lchash natijalarini yozish<br><br>(termometr, monometrlar uchun).</td><td>O'lchash birligini tanlash.<br><br>Bulimlar qiymatini aniqlash.<br><br>O'lchash chegaralarini aniqlash.<br><br>Asbob ko'rsatkichlarini o'qish.<br><br>Parallaks xatoga yo'l qo'ymaslik.<br><br>O'lchash aniqligini aniqlash.<br><br>O'lchash natijalarini qayd qilish.</td><td>Asboblar yordamida fizik kattaliklarni o'lchash</td></tr>
</table>

| | | |
|---|---|---|
| Elektroskopning asosiy qismlarini ajratish;<br>Bu qismlarning o'zaro ta'sirini tavsiflash.<br>Ishlash prinsipini tushuntirish<br>(Nasos, kalorimetr). | Asbobning asosiy qismlarini ajratish.<br>Asbob qismlarining o'zaro ta'sirini tavsiflash.<br>Ishlash prinsipini tushuntirish. | Asbob tuzilishini tushuntirish |
| Jismning kristallashuvi jarayonida termometr ko'rsatishlarini kuzatish maqsadini tushuntirish (aniqlash)<br>Ob'ektni ajratish<br>SHaroit yaratish<br>Reja tuzish<br>Natijalarni qayd qilish usulini tanlash<br>Kuzatishlardan xulosa chiqarish<br>(mexaniq harakat, qaynash) | Kuzatish maqsadini tushuntirish<br>Obektni ajratish<br>Sharoit yaratish<br>Reja tuzish<br>Natijalarni qayd qilish usulini tanlash<br>Kuzatishlardan xulosa chiqarish | Kuzatishni amalga oshirish |

**Tor ko'nikmalar** deganda, talabaning bitta ob'ekt (asbob, jism, hodisa) bilan bir tomonlama tugallangan ishni bajarish qobiliyatini, boshqa biror asosga ko'ra o'xshash bo'lgan ob'ektlar bilan bog'lash bo'lmagan holda tushuniladi. Faoliyat mazmuni o'zlashtiruvchi tomonidan faqat aynan shu ob'ektga taalluqli jarayon deb qabul qilinadi. Masalan, jilgichli reostat bilan ishlashda o'quvchilar reostatdagi 0,5A; 100 Om, cho'g'lanma lampani o'rganishda 220V, 40Vt belgilashlar bilan tanishadi. Bunda o'quvchilarda reostat va lampadagi belgilashlarni o'qish va ularni amaliyotda qo'llash kabi tor ko'nikmalar shakllanadi, lekin o'quvchilar bu belgilashlar orasidagi aloqalarni va asboblardan foydalanish shartlarini ko'rmaydi. Har xil o'xshash ob'ektlar bilan ishlashdagi harakatlar va amallar asosan o'zgarmaganligi (saqlanganligi) sababli, bunday faoliyatni bir necha takrorlashlardan keyingina o'quvchilar (talabalar) ulardagi umumiylikni ko'ra boshlaydi. O'xshash ob'ektlar bilan ishlash jarayonida, tor ko'nikmalar anglangan umumiylik ta'sirida qayta shakllanadi. SHuni aytib o'tish kerakki, eksperimental ko'nikmalarning ko'p qismini tor ko'nikmalar tashkil qiladi.

**Keng ko’nikmalar**, o’quvchining o’xshash ob’ektlar bilan turli bog’lanishda (aloqalarda) faoliyat bajarish qobiliyatini tavsiflaydi, bunday ko’nikmalar tor ko’nikmalarga xos bo’lgan amal va harakatlarni sintez qilish natijasida hosil bo’ladi. Masalan, o’quvchilar reostat, lampadagi belgilashlarni o’qish va tatbiq qilish kabi tor ko’nikmalarni o’zlashtirgandan so’ng, ular shunday ishlarni dazmol, payvand kabi asboblar ustida bajaradilar. Asta-sekin bunday belgilashlar, barcha asboblarda mavjud ekanligini va aynan shularning asbob pasporti deb nomlanishini anglaydilar (asbobni tavsiflovchi muhim kattaliklarni ko’rsatish, barcha fizik asboblar uchun umumiydir). Shunday qilib, tor ko’nikmalar (reostat, lampa va boshqa asboblardagi belgilashlarni o’qish va tatbiq qilish) keng sodda ko’nikmaga - asbobning pasport ma’lumotlarini o’qish va shunga asoslangan holda keng murakkab ko’nikma - asboblardan foydalana olish ko’nikmasiga o’tadi.

Tor ko’nikmalardan kengroqlariga o’tish, ayniqsa, o’lchash amallarini shakllantirishda yaqqol kuzatiladi. Bunday o’tishlar tarqoq, ya’ni asta-sekinlik bilan, har xil talabalarda turlicha ro’y berishi mumkin. Maqsadli, tashkiliy rahbarlik qilish asosida amallar va harakatlarning umumiy ekanligini ko’rsatish, kelgusida o’xshash hollarga ko’chirish, bu jarayonni jadallashtiradi, samaradorligini oshiradi.

Lokal faoliyat deyilganda uni nisbatan tugallangan va yaxlit deb qarashga imkon beradigan asosiy komponentlarini (maqsadni, unga erishishni bilish, xulosalarni ifodalash va boshqalar) qamrab olgan jarayon tushuniladi.

Sodda ko’nikma deb harakatni ko’chirishga asoslangan lokal faoliyatni bajarish qobiliyatiga aytiladi. Sodda ko’nikmalarni shakllantirishda, nazariya, instruktiv xarakterdagi bilimlarga nisbatan kamroq ishlatiladi. Ular orasidagi nisbat turli sodda ko’nikmalar uchun turlicha bo’ladi. Ba’zi bir sodda ko’nikmalar, ayniqsa harakat manbai (motor) mavjud bo’lganlari, turg’un sharoitlarda faoliyatning takrorlanishi bilan ong tomonidan kam nazorat qilinadi, ya’ni u malakaga aylanadi.

**Murakkab ko’nikmalar**, berilgan faoliyat mazmuniga ma’lum qoidalar asosida bog’langan va tashkil qilgan sodda amallar majmuasi (o’lchash, kuzatish, tushuntirish, elektr zanjirlarini yig’ish va h.k.) bo’lib, ularning yig’indisi bilan aynan teng emas. Murakkab ko’nikmalarning o’ziga xos tomoni shundan iboratki, u namoyon bulayotgan faoliyatning o’zigagina xos bo’lgan harakat va amallari mavjud bulmaydi. Bu faoliyat unga xos bo’lgan sodda ko’nikmalarning harakat va amallari orqali amalga oshiriladi. Murakkab ko’nikmalar - unga xos bo’lgan sodda ko’nikmalarni umumlashtiruvchi atama emas, balki u eksperimental ko’nikmalarning mukammal turidir. Aynan shunga asosan, bitta sodda ko’nikma, ikkinchisini rivojlantirishda ishtirok etadi. Murakkab ko’nikmalarni shakllantirishdagi faoliyat soddalariga nisbatan ko’pqirrali va ancha mukammal bo’ladi.

**Sodda va murakkab ko’nikmalar orasida tarkibiy farqlar ham mavjud.**

Murakkab ko’nikmaning tuzilmasi, harakatlar tarkibi va ularni bajarish ketma-ketligini anglash, faoliyat bajarilayotgan sharoitlarni tahlil qilish, vositalarni tanlash, rejalashtirish, faoliyat natijalarini tahlil qilish kabi komponentlar bilan to’ldiriladi. Murakkab ko’nikmada nazariy bilimlarning salmog’i ortadi.

Tor ko’nikmalarning yig’indisidan iborat bo’lgan sodda ko’nikmalar, umumlashtirishning birinchi darajasini tashkil qiladi. Keng ko’nikmalar tor, sodda va murakkab ko’nikmalarning birlashmasi va umumlashmasidan iborat bo’lib, umumlashtirishning ikkinchi darajasini tashkil qiladi. Shuningdek, uchinchi - yuqori darajali umumlashtirish ham mavjud. Masalan, tajribani qo’yish ko’nikmalari. Bunda, asboblardan foydalanish, kuzatish va o’lchash kabi amallarni olib borish ham murakkab ko’nikmalarga kiradi.

Eksperimental ko’nikmalar murakkab o’zaro aloqalarda shakllanadi va yaxlit faoliyatni ta’minlagan holda biri-birini to’ldiradi. Shu sababli, eksperimental ko’nikmalarni shakllantirish uchun boshlang’ich ko’nikma yetarli va shunga asosan, boshqa murakkab ko’nikmalar shakllanadi deb hisoblash noto’g’ri bo’ladi.

**yetakchi ko’nikmalar** asos soluvchi bo’lib, uyg’un birlikda boshqalarini shakllantirishda xizmat qiladi. Fizikadan laboratoriya praktikumini o’qitishdagi yetakchi eksperimental ko’nikmalar tarkibiga quyidagi sodda ko’nikmalar kiradi:

-asbobdan foydalanish qoidasiga rioya qlish;

-o’lchash asboblari shkalasining bulimlari qymatini aniqlash;

-asbob ko’rsatkichini o’qish;

-kuzatish ob’ektini ajratib olish, kuzatishni bajarish;

-kuzatish natijalarini ifodalash.

**kuzatish** ko’nikmalarning asosiy guruhini tematik ko’nikmalar tashkil qladi.

Ta’limda, o’quv materialining mazmuniga bog’liq bo’lmagan, hamda bilan cheklangan ko’nikmalar mavjud. Ular, mos ravishda, umumiy va tematik ko’nikmalar deb ataladi. Adabiyotlarda umumiy ko’nikmalar **umumlashgan** ko’nikmalar nomi bilan yuritiladi. «Umumlashan ko’nikma deb, keng sohdagi masalalarni hal qilishda chunonchi nafaqat itta predmet doirasida, balki boshqa o’qv fanlarida, hamda maliy faoliyatda foydalanish mumkin bo’lgan ko’nikmalarga aytiladi» . Umumiy eksperimental ko’nikmalar fizikaning barcha mavzularini o’rganishda shakllanadi va qo’llaniladi. Ular istalgan mazmundagi o’quv materialida asosiy (universal) ko’nikma bo’lib hisoblanadi.

Umumiy eksperimental ko’nikmalar keng ko’nikmalarni o’z ichiga oladi hamda sodda va murakkab ko’nikmalar kabi shakllanadi. Umumiy ko’nikmalar, turlicha ko’chirish xossasiga ega, u nafaqat mavzu, kurs, bulim ichida, balki fanlararo ko’chirish xossasiga ham ega. Umumiy ko’nikmalarni shakllantirish fizika ta’limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Tematik ko’nikmalar** deganda, o’quvchining fizik konstantalarni tajriba usulida aniqlash, fizik kattaliklarni bilvosita o’lchash bo’yicha faoliyat hamda ba’zi mavzularga xos maxsus faoliyat (prujinani darajalash, ketma-ket va parallel ulashda tok kuchi va kuchlanishni aniqlash va boshqa) ko’rsatish qobiliyatining shakllanganligi tushuniladi.




4- rasm. Ko’nikmalarning o’zaro aloqalari.

Umumiy o’rta umumta’lim maktabida tematik ko’nikmalar, mohiyati jihatidan, muhim guruhni tashkil qiladi, ularni shakllantirishda ko’p umumiy ko’nikmalar qatnashadi. Ular tematik ko’nikmalar uchun asos hisoblanadi. Tematik ko’nikmalar, o’quvchilarni kelgusi bosqich ta’limidagi murakkab faoliyatga tayyorlaydi. Faoliyatning turli tumanligi va murakkab xarakterda bo’lganligi sababli barcha ko’nikmalarni sanash imkoniyati cheklangan. Ammo, jadvalda boshqa eksperimental ko’nikmalar uchun asos bo’ladigan turlari sanab o’tilgan. Eksperimental ko’nikmalar turlarining o’zaro aloqasi 4- rasmdagi sxemada berilgan.

Ko’nikmaning tabiatidan kelib chiqadigan eng muhim alomatlaridan biri «faoliyatning to’g’ri usullari va turlarini yangi yoki tubdan o’zgartirilgan sharoitlarda foydalanish, bu faoliyatni ma’lum aqliy masalani hal qilishda, unga mos keluvchi bilimlarni ongli va maqsadga moslashtirgan holda amalga oshirish» dan iborat bo’ladi.

O’quvchiga faoliyat sharoitini o’zgartirib (turlantirib) boshqa, murakkabroq talablar qo’yilganda, ko’nikma yangi maqsadlarga erishish vositasi sifatida takomillashadi. Faoliyat sharoitini turlantirganda ko’nikmani rivojlantirishning eng muhim bug’inlarini hisobga olish zarur. Bunda didaktik masalalarni, shu ko’nikmaning ta’sir doirasi, shakllantirish davrini e’tiborga olish maqsadga muvofiq.

Yangi yoki turlantirilgan (o’zgargan) shartlar deganda nimani tushunmoq kerak? Eksperimental ko’nikmalarni shakllantirganda shartlar, davlat ta’lim standartida qayd qilingan va o’quvchining bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yilgan talablar tizimi, mavjud uskunalar, topshiriq xarakteri, rahbarlik usuli (yozma ko’rsatmalar mavjudligi) bilan aniqlanadi. Bundan amaliyot uchun muhim bo’lgan quyidagi xulosa kelib chiqadi: agar ko’nikma ma’lum darajada shakllangan bulsa, u holda uni rivojlantirish uchun laboratoriya mashg’ulotlarida navbatdagi yangi shartlar yaratilishi zarur.

## 1.3. Fizikadan bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashga innovatsion yondashuvlar

Ijtimoiy islohotlar doirasida olib borilgan ta'limdagi tub o’zgarishlar uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishida ulkan imkoniyatlar yaratmoqdi. Endilikda uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichi ijtimoiy maqsad — bulajaq mutahassisni, jumladan, bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Kuchli ta'sirchan va mustahkam bakalavr o’qituvchilarini tayyorlash jarayonini faqatgina fan o’rnatgan ob'ektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Bu albatta, ITT bilan bog’liqdir.

**Innovatsiya pedagogik muammolar yechimini izlash,** ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarning borishi, xususiyatlari, mazmuni tarkibi va klas-sifikatsiyasi, tekshirish natijalarini tahlil qilish bilan bog’liq,.

«**Innovatsiya**» so’zi lotin tilidan olingan bo’lib, yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. XX asr boshlarida biror bilim sohasiga yangiliklarni kiritish va qo’llash fani yuzaga keldi. Olimlar yangiliklar kiritish va tekshirishni uch bosqichga ajratadilar: Birinchi bosqich — yangiliklar muvaffaqiyatiga yordam beruvchi yoki to’sqinlik qiluvchi omillarni o’rganish va turli xil yangiliklarning empirik ma'lumotlarini tahlil qilish. Ikkinchi bosqich — yangilik kiritish jarayonining o’zini bir soha muhitidan ikkinchi sohaga olib o’tish mexanizmini hisobga olish bilan birgalikda o’rganish. Uchinchi bosqichda — tadqiqotchi diqqati turli xil innovatsion vaziyatlarni tahlil qilish, tavakkalchilikni baholash metodlarini ishlab chiqish, yangiliklarni kiritish sohasida tavsiyanomalar yuzaga keltirishlariga qaratish.

Yangilikni yaratish va ijro etishni ta'minlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga bulinadi. **Hozirgi davrga kelib ilmiy adabiyotlarda quyidagi innovatsion jarayonni bosqichlarga ajratish tizimi mavjud: yangiliklarning yuzaga kelish bosqichi, uni shartli ravishda fundamental va amaliy-ilmiy tekshirishlar natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar; kashf etish bosqichi,**

**ya'ni ob'ektning moddiy yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishidagi yangilik yaratishidir.**

Yaratilgan yangilikning amaliy qo'llanishi uni qo'shimcha ishlab kiritish orqali yuqori samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi. Bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish sharti bilan amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida keyingi bosqichlar ko'rinadi. Bu bosqich yangilikning tarqalishi va uning yangi sohalarga qo'shilib, keng tatbiq, yetilishidan iborat. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bulmay qolishiga olib keladi. Yangilik qo'llanishining doirasi qisqarib, uning yangi maxsuldorligi bilan almashadi.

**Innovatsioan jarayon tuzilishi yangilikni bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib borishi bilan o'zgarib boradi**. Shu bilan birga, yangilikning dinamik xususiyatlari va uning natijaviy yakuni hamda samarasiga bog'liq bo'ladi. Yangilikning yakunlanganligi yoki uning imkoniyatlari muayyan maqsadni amalga oshirganlik darajasi innovatsion jarayonning hamma bosqichlarida qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liqdir. Yangilikning samaradorligini uning natijasidan belgilash kerak bo'ladi.

**Innovatsion faoliyatning aniq shakl va uslublari ishlab chiqilgan**. Quyida ana shulardan ayrimlari namuna sifatida keltiriladi: ta'lim-tarbiya faoliyatini differentsiallash; ta'lim-tarbiya jarayonlarini har xil shaxs hislatiga qarab muvofiqlashtirish; har bir tarbiyalanuvchi qobiliyati va qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish; gomogen sinflarni tashqil qilish; ta'lim-tarbiya faoliyatining qulayligi; psixologik himoya; bakalavr o'qituvchisiga va uning kuchi hamda imkoniyatlariga ishonish; bakalavr o'qituvchisini qanday bulsa, shunday qabul qilish; ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatini ta'minlash; muassasaning maqsadli yo'nalishini o'zgartirish; har bir bakalavr o'qituvchisi rivojlanish darajasining asoslanishi; pedagogning shaxsiy ichki yo'l-yo'riqlari va ularni qayta yo'naltirish.

Bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashda ularda innovatsion usullar orqali tushunchalarni shakllantirish ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tizimini muntazam mukammallashtirishga bog'liq bo'ladi. Ularni tayyorlash jarayonida innovatsion usullardan kam foydalanish, dastur va darsliklarda muayyan topshiriqlar, maxsus metodikaning ishlab chiqilmaganligi natijasida masala yechimi ijobiy hal qilinmayottanligi aniqlangan. Demak, bugungi kunda bilimli, mahoratli bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashga ITTning samarali yo'llarini topish, ularda bilish motivlarini rag'batlantirish hamda o'qitishning shakl va mazmunini boyitgan holda erishish mumkin.

Bakalavr o'qituvchisi siymosi o'zida ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining asoslaridan xabardor, ijtimoiy voqea va hodisalar mohiyatini teran anglab, ob'ektiv baholay oladigan mustaqil fikr va keng dunyoqarash egasi bo'lish kabi sifatlarni namoyon etishi kerak. Bakalavr o'qituvchilarini tayyorlash uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi umumiy pedagogik faoliyatni mazmun va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, yuqori samaradorlikka ega ITTni qo'llash va keng ko'lamli axborotlardan foydalanishda tezkorlikka erishishni taqozo etmoqda. Davrning o'ta dolzarb ushbu talabidan kelib chiqqan holda respublika miqyosida oliy ta'lim muassasalarining faoliyatiga ITTni tatbiq, etish borasida bir qator qo'yidagi ijobiy ishlarni amalga oshirish lozim:

— ITTlar asosida fizika o’qituvchilarini tayyorlash jarayoniga ilmiy-amaliy jihatdan yondashish;
— ITTlar metodlari, usullari, shakllarini va ularning hajmini o’rganish masalalariga fizika o’qituvchilar tomonidan e'tiborni oshirish;
— ITTlar asosida fizika o’qituvchilarini tayyorlash jarayonini to’g’ri hamda samarali rejalashtirishda ma'lum bir tizimni yaratish;
— bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda ITTlar mohiyatidan xabardor etish imkonini yaratuvchi o’quv manbalari (darslik, o’quv qo’llanmasi, ma'lumotnoma, metodik tavsiyanoma hamda risolalar)ning yaratilishiga alohida e'tibor berish;
— ITTlar asosida fizika o’qituvchilarini tayyorlash jarayonini faollashtirish uchun ularni rag’batlantirish yo’llarini ishlab chiqish;
— bakalavr o’qituvchilarini ko’proq, innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish;
— ITTlar asosida fizika o’qituvchilarini tayyorlash jarayoni samaradorligini oshiradigan boshqa tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalda joriy etish;
— ularni ITTlar asoslari xususidagi bilimlardan xabardor etish maqsadida ularning kasbiy malakalarini oshirishga yo’naltirilgan qo’shimcha mashg’ulotlar tashkil etish;
— bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda tashabbuskor pedagoglarning ITTni qo’llash borasidagi ilg’or ish uslublarini keng ommalashtirish;
— bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda o’qitilishi yo’lga qo’yilgan o’quv fanlari bo’yicha darsliklarning yangi avlodini yaratish, ularning mazmunini ochib berishda texnologik yondashuvga erishish;
— bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda ta'lim-tarbiya faoliyatiga innovatsion ta'lim texnologiyalarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida halqaro, mahalliy davlat va nodavlat tashkilotlar homiyligida ularning chet ellarda o’qishlariga alohida e'tibor qaratish;
— bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda ta'lim-tarbiya jarayoniga ITTni joriy etishning ilmiy-amaliy asoslari mavzusidagi ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib borish va respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlarni muntazam o’tkazish.

Mazkur tadbirlarning maqsadi bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda ta'lim-tarbiya jarayoniga ITTni tatbiq etishning samarali yo’llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Buni qo’yidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq;

**1- bosqich.** Horijiy tajribalarni o’rganish, ITTlar borasidagi nazariy bilimlar bilan tanishish, mahalliy shart-sharoitlar asosida bakalavr o’qituvchilarini tayyorlash uchun nazariy manbalar (darslik, o’quv qo’llanma, tavsiyanoma, risola va ko’rgazmali materiallar majmuini yaratish, oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash).

**2- bosqich.** O’zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga faol tatbiq etish, har bir o’quv fani yuzasidan texnologik xaritani yaratish, uning samaradorligini o’rganish, zarur o’rinlarda texnologik harita mazmuniga o’zgartirishlar kiritish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitib borish.

**3- bosqich.** Bakalavr o’qituvchilarini tayyorlash samaradorligini oshirishda ularning DTS talablari darajasidagi bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lish ko’rsatkichlarini tahlil etish, yangi loyihalarni ishlab chiqish, nazariy va amaliy bilimlarni doimiy ravishda

o’zlashtirib borishiga erishish, ta'lim vositalari imkoniyatidan muvaffaqiyatli foydalana olish malakalarini rivojlantirish.

Mamlakatimiz ta'lim amaliyotiga hozirgi zamon innovatsion ta'lim texnologiyalar (ITG) ning kirib kelishini va ulardan keng foydalanish zaruratinish paydo bo’lishini bir necha sabablar bilan izohlab berish mumkin. Birinchidan, mustaqillikka erishgach barcha sohalar singari ta'lim sohasida ham tub o’zgarishlarning amalga oshirilayotganligi, umumjahon ta'lim-axborot tizimi sari qadam qo’yilishi, ta'lim sohasidagi halqaro aloqalarning tobora kuchayishi. Ikkinchidan, ta'lim-tarbiyaning an'anaviy usullari hayot talablaridan orqada qolayotganligining, ta'limga yangicha, noan'anaviy yondashish kerakligining e'tirof qilinganligi va pedagog-novatorlikning vujudga kelishi, fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida o’qitishning texnikaviy vositalari keng quloch yoyishi oqibatida «texnologiya» tushunchasining ishlab chiqarishdan ta'lim-tarbiya sohasi gomon siljishi.

ITTlar ta'lim-tarbiyaning shakllari, metodlari va vositalari tizimidan iborat bo’lib, ularga to’la amal qilinganida bakalavr o’qituvchilari tayyorlash, o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning berilgan aniq miqdor va sifatdagi natijalariga erishishni kafolatlaydi. Vaholangki, hech bir pedagogning metodikasi berilgan miqdordagi va sifatdagi ta'lim-tarbiya natijalariga erishishga kafolat berolmaydi.

ITTlar an'anaviy o’qitish tizimiga xos bo’lgan jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. An'anaviy o’qitish bakalavr o’qituvchisining xotirasiga, bilimlarni, ma'lumotni qanchalik esda saqlab kelishiga tayansa, ITTlar ularning mustaqilligiga, tafakkurining rivojlanishiga, o’z-o’zining rivojlanishiga tayanadi. Odatdagi darslarga xos bir qoliplik, bakalavr o’qituvchilari o’quv faolligining minimal darajada ekanligi, mashg’ulotda asosan pedagog faollik ko’rsatishi, o’quv predmeti mazmunining fragmentar tarzda o’rganilishi, pedagog va bakalavr o’qituvchilari orasidagi munosabatning avtoritar uslubda yo’lga qo’yilganligi kabilar ITTlarda silliqlanadi. ITTlar pedagogik amaliyotni ma'lum darajada yuksak rivojlangan ishlab chiqarishga, uning ish printsiplariga yakunlashtiradi. Pedagogning faoliyatiga aniq mazmun bag’ishlaydi, texnologik tafakkurini shakllantiradi, uni ijodga, izlanishga chorlaydi. Bakalavr o’qituvchilari ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadilar, o’zlari mustaqil bilim oladilar, kollektiv ravishda ta'limiy vazifalarni hal etadilar, o’z-o’zini baholaydilar, ta'lim texnologiyalarini tuzishda ishtirok etadilar. ITTlardan foydalanish ta'limda hozirda duch kelgan muammolarni to’la-to’kis hal etadi, deb hisoblash noto’g’ri sanaladi. Negaki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tinimsiz ilgarilab borar ekan, ta'lim-tarbiyada yangi muammolar paydo bo’lishi tabiiy. ITTlardan foydalanish so’zsiz pedagoglar texnologik tafakkurini rivojlantirishni, uni ta'lim-tarbiyaga texnologik yondashuvni amalga oshirish, standartlashtirish, bakalavr o’qituvchilarini ITTlardan foydalanish sharoitida o’qishga, o’rgatishga tayyorlashni talab qiladi. Pedagoglarning ko’pchiligi ITTlarni zo’r quvonch, yangi ijodiy kuch bilan kutib olayotganliklari bilan bir qatorda, aksariyatlari texnologik tayyorgarlikdan o’tmaganliklarini, bu muammoga jiddiy ahamiyat qaratish lozimligini ta'kidlash kerak. Mashg`ulotlarni tashkil etishda, bakalavr o’qituvchilari faolligini oshiruvchi, ijodiy muhitni shakllantiruvchi, mashg’ulot mazmunini ochib berishda ilmiylik tamoyiliga tayanuvchi, ularni fanga bo’lgan qiziqishini yuksaltiruvchi, Vatanga bo’lgan muhabbat to’yg’usi, o’zlikni anglashga

bo’lgan intilishni kuchaytirishga qaratilgan barcha fanlarning qudratini o’zida mujassamlashtirgan ITTni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish muhimdir.

ITT muassasalarda ta'lim berishning zamonaviy ilg’or texnologiyasidir. Bu texnologiyaning maqsadi bakalavr o’qituvchilarini o’z faniga bo’lgan qiziqishini kuchaytirishdan iborat bo’lib: ularda fanlarni o’rganishga ijodiy yondashuvni tarbiyalash; adabiyotlar bilan mustaqil ishlashni o’rgatish; fanlar o’rtasidagi bog’lanishdan foydalanishni ko’rsatish vazifalarini hal etish tarzida amalga oshiriladi. ITT asosida ustoz-shogird hamkorligida muammoni o’rganish va uni hal etishda ustoz ko’rsatmalarini har bir bakalavr o’qituvchilari tomonidan mustaqil bajarib borilishi yo’lga qo’yiladi. Ular mustaqil tadqiqot ishining natijalari esa ilmiy seminarda muhokama qilinadi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishiga o’xshash faoliyat muammoni hal etishga xizmat qiluvchi yangi ma'lumot olinguncha takror davom ettiriladi. Mazkur texnologiya qobiliyatli bakalavr o’qituvchilarini ilmiy muammolarni mustaqil hal qilishga tayyorlash, ularning bilimini boyitish va seminarlarda o’z fikrini erkin bayon eta olish ko’nikmalarini tarbiyalash kabi zamon talabiga mos vazifalarni bajaradi. ITT nomini olgan mazkur metod asosida bir qator muammolar o’z yechimini topmoqda. Harakatli rasmlar, telekonferentsiya, transliteratsiya, elektron kitob kabi yangi kompyuter axborot texnologiyalari o’quv jarayonini faollashtirish uchun xizmat qilmoqda. ITT na faqat fan, balki texnikani o’rganishda ham ahamiyatlidir. Texnikani o’rganishda ushbu o’quv texnologiyasidan qo’yidagi tartibda foydalanish tavsiya etiladi: mavzuga oid material bakalavr o’qituvchilari tomonidan o’zlashtirilishi uchun pedagog tomonidan texnikaviy vazifaning qo’yilishi; texnikaviy vazifani hal qilish yo’llarining ular tomonidan amalga oshirilishi. Bunda bakalavr o’qituvchilari muammoli savollar va o’zining ilmiy taxminlarini yozib boradi hamda interfaol mulokrt rejasini tuzadi. Interfaol mulokrt davomida tanlab olingan xulosaga tayanib texnikaviy vazifani har bir bakalavr o’qituvchilari mustaqil yoki ma'lum guruh tarkibida amalga oshiradi. Texnikaviy masalani hal qilishda eskiz tayyorlash, chizma chizish, konstruktsiya shaklini o’rganish kabi vazifalarni kompyuter yordamida bajaradi. Mazkur interfaol metod mashg’ulot qatnashchilarining o’zaro faolligi asosida darsni tashkil etish bo’lib, u 2000- yildan boshlab respublikamizda qo’llanila boshlandi. Ushbu metodning muallifi AQShlik ruhshunos Dyui hisoblanadi. U 1920- yilda o’quv jarayonida pedagog va talabalar o’rtasidagi o’zaro faollikni rivojlantivrishning ahamiyatini ochib bergan.

Bakalavr o’qituvchilarining kitobdan kerakli ma'lumotni o’qib o’rganishi mustaqil ta'lim shakllaridan biridir. Uning samarasi ko’p jihatdan pedagog va ular o’rtasidagi muloqotning natijasiga bog’liq.Bakalavr o’qituvchilari nazariy bilimlarni asosan ma'ruzalardan oladi. Ma'ruza matnlari kitob yoki elektron darsliklarda ham mavjud, biroq ulardan foydalanish samarasi faqat ular o’rtasidagi jonli muloqotdan so’nggina yuqori bo’ladi. Demak, interfaol ma'ruzalar katta ahamiyatga ega.

Ma'ruzalarning qo’yidagi turlarini farqlash kerak: muammolarni yorituvchi; ko’rgazmali; matbuot konferentsiyasi shaklidagi; keng umumlashtiruvchi; ikki mutahassis; xatoliklar rejalashtirilgan; dialog shaklidagi; ilmiy interfaol ma’ruzalar. Ma’ruza mavzularini yoritishda interfaol darsning yuqori da ko’rsatilgan shakllaridan biridan foydalaniladi. Masalan, biror apparat bilan ishlashni o’rgatishda pedagog, ikkinchi ma’ruzachi sifatida undan foydalanuvchi mutaxassis yordamida ma’ruzani

tashkil qilgani maqsadga muvofiqir. Ikki mutaxassis ma’ruzasi deb ataluvchi ma’ruza davomida bakalavr o’qituvchilari pedagogdan apparatning tuzilishi, ishlash printsipi kabi nazariy asoslarini bilib olsa, foydalanuvchi mutaxassisdan bevosita ishlatishga oid zarur ko’nikmalarni amalda ko’radi. Albatta, ma’ruzaga ikkinchi mutaxassisni taklif etish ma’lum qiyinchiliklarni to’g’dirishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilishda, ikkinchi mutaxassis sifatida bakalavr o’qituvchilaridan birini tanlab olib, oldindan uni tayyorlash hisobiga bu muammoni hal qilsa ham bo’ladi.

Ma’ruza shakllarinint yuqorida keltirilgan turlari amaliyotda keng qo’llaniladi. Ularning eng so’ngisi yangi taklif etilayotgan ma’ruza shakli bo’lib, u ilmiylik tamoyili asosida interfaol texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ilmiy-interfaol ma’ruzaning asosiy qismlari qo’yidagilardan tashkil topadi: ilmiy tadqiqotning maqsad vazifalari aniq ko’rsatilganidek, ma’ruzaning ham maqsad va vazifalari aniq ko’rsatiladi; ilmiy tahmin va uni isbotlash usullari ma’ruza mazmunini ochib berishda foydalaniladi; ma’ruza natijalari asoslangan bilimlar shaklida ifodalanadi va ularni tahlil qilishga interfaol savollar yordamida bakalavr o’qituvchilari ham jalb qilinadi; ma’ruzaning xulosasi pedagog tomonidan yangi bilimlar to’plami shaklida bayon etiladi; mavzuga oid yangi tayanch so’z, iboralar ma’ruza yakunida bakalavr o’qituvchilarining e'tiboriga havola etilishi zarur. Interfaol savollarni tuzishda uning qo’yidagi shakllariga alohida etibor berish kerak: tahlil qilishni talab etuvchi; baholash zaruratini paydo qiluvchi; o’xshatish asosida hal etishga molik; amalda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash bilan bog’liq; turli shakldagi test savollari. Shu bilan birga B.Blum hamda pedagogning faollashtiruvchi savollaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqir.

**Blum savollari**

1 – jadval

| |
|---|
| **1. Bilish** (faktli-daliliy bilish)ga oid savollar: a) Qayerda, qachon nima sodir buldi...? b) Qayerda o’ylashgan...? v) Qachon...? |
| **2. Tushunish** (ma'nosini anglash)ni ko’rsatuvchi savollar: a) O’z so’zingiz bilan bayon qiling. b) Tafsilotini yozing. v) Bulardan... qaysi biri namuna? |
| **3. Qo’llash** (amaliy ahamiyat)ga oid savollar: a) ...Qayoqda, qanday qo’llaniladi? b) Bu nima uchun sodir bo’ladi? v) Bu qonun qanday qo’llanilishi mumkin? |
| **4. Taxlil** (yaxlitlikni tarkibiy qismlarga ajratish va ular orasidagi bog’lanishlarni o’rnatish)ga oid savollar: a) Taqqoslang. b) Eng muhim xususiyatlari nima? v) Turkumlang. |
| **5. Sintez** (alohida qismlardan mantiqiy yangi yahlitlikni vujudga keltirish) ga oid savollar: a) ... rejasini tuzing. b) Buni siz qanday yaratgan bular edingiz? v) Mavzuning eng muhim jihatlarini belgilang |
| **6. Baholash** (qaror qabul qilish, xulosa yasashni uddalash)ga oid savollar: a) ...ga munosabat bildiring. b) Namuna talabga javob beradimi? Nima uchun? v) Qaysi mezonlarga asoslanib baholash mumkin? |

**Pedagogning murakkabligi turlicha bo’lgan savollari**

Pedagogning savoli bakalavr o'qituvchilari bilish qobiliyatlarini boshqarish vositasidir. Qaysi ma'noda yoki vaziyatda qo'llanilishiga qarab ular mustaqil fikrlashni rivojlantirishi yoki bukib qo'yishi mumkin. O'qish jarayonini savollar yordamida boshqarish ko'nikmasi, pedagogning metodik mahoratini muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ijodiy fikrlash axborotlarni eslab qolish va so'zlab berishga oid fantologik savollar berilishini deyarli nazarda to'tmaydi. Qo'yidagilarni bunday savollarga misol qilib ko'rsatish mumkin: Termodinamikaning ikkinchi qonunini aytib bering. Radioning ixtirochisi kim? O'quv jarayoni bunday savollarsiz kechmaydi, lekin ular nixoyatda ko'p berilmasligi kerak. Tajribali pedagog o'zining faollashtiruvchi savollari bilan ijodiy, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bakalavr o'qituvchilarini mulohaza qilishga undovchi umumlashtirish, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni anglash, foh, xulosa va takliflarni mukammal shakllantirish uchun muayyan sharoit yaratadi- Bunday hollarda bakalavr o'qituvchilarining fikrlash darajasi ko'tariladi. Fikrlar qadr-qimmatta ega ekanligini, ular umumiy tushunish va tasavvurning rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha olishini his etadilar. Ushbu savollarni keltiramiz:

**Da'vat:**
"O'tilgan mavzuga oid qanday ma'lumotlarni bilasiz?" "Bu to'grisida siz oldindan nimalarni bilasiz?" "Buning sizga nima ahamiyati bor?"
"Nimani tushunmadingiz, lekin uni bilishni xoxdaysizmi?"

**Berilgan matnni o'kib bo'lgandan so'ng:**
"Siz nimani angladingiz?"
"Bu sizda qanday sezgilarni paydo qildi?"
"Bu materialda qaysi savollar javobsiz qolgan.?"
"Sizni biror taklifingiz bormi?"

**Anglash fazasida:**
"Bu materialdan siz qanday yangi ma'lumot oldingiz?"
"Bu to'grida sizning fikringiz qanday? "
"Buning ahamiyati nimada?"
"Sizda nima chuqurroq, taassurot qoldirdi?"
"Buni sizning tajribangizga aloqasi bormi?"
"Bu yaxshimi yoki yomonmi?"

**Muloxaza qilish fazasida:**
"Meni bu haqidagi fikrim qanday?"
"Bundan biz qanday xulosalarga kelishimiz mumkin?"
"Bu axborot mening bilganlarim bilan qanday boglanishga ega?
"Bu g'oyalar ta'sirida mening qarashlarim qanday o'zgaradi?"

**O'z taassurotlarini qayga ko'rish:**
"Biz bundan qanday xulosaga kelishimiz mumkin?"
"Biz bu bilimlarni qayerda qo'llashimiz mumkin?"

"Nimani qo'shish yoki chiqarib tashlash mumkin?"
"Yutuq va kamchiliklar nimada deb bilasiz?"
"O'xshash fikrlarni ham ko'rib chiqdingizmi?"
"Qanday takliflaringiz bor?"

Bakalavr o'qituvchilari olgan bilimlarini baholashda taklif etgan qo'yidagi bilim darajalariga e'tibor berish yaxshi natija beradi. 1. O'qigan ma'lumotini yodlab olish. 2. O'qigan ma'lumotini tushunish va tushuntirib bera olish. 3. Amalda qo'llay olish. 4. Asosiy fikrni ajrata olish. 5. Olingan bilimlarni yaxlit va o'zaro aloada sintez qilish. 6. Olingan bilimlarning kamchilik va xatolarini topa olish, ularni tuzatish uchun takliflar kiritish.

Ushbu baholash darajalarining dastlabki uch bosqichi hunarmand darajasidagi bilimlarga ega bakalavr o'qituvchilari guruxini aniqlashga imkon beradi. Keyingi uch bosqich esa ilmiy-ijodiy faoliyatga moyil bakalavr o'qituvchilarini topishga imkon beradi.

ITTga oid izlanishlarning natijalari haqidagi turli seminar va anjo'manlarda aytilgan fikr-ma'lumotlar, olimlarning ibratli hayoti va faoliyati bilan bakalavr o'qituvchilarini tanishtirish, ularni bugungi kundagi dolzarb hayotiy masalalarni professional darajada echa olishga o'rgatish, ularda fanga bo'lgan qiziqishni shu tarzda kuchaytirish muhimdir.

ITT bakalavr o'qituvchilarini ilmiy-ijodiy faoliyat va mustaqil fikrlash sari undaydi. Ularda olingan bilimlarni amaliyot bilan bog'lay olish va yangi bilimlarni egallashda turli manbalardan foydalana olish ko'nikmalarini tarbiyalaydi- Bilimlar bazasini ixchamlashtirishga o'rgatadi. Eng asosiysi ustoz-shogird o'rtasidagi ijodiy muloqotning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Dars samaradorligini oshirish ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo'lga qo'yish va ITTni amalda qo'llash bilan uzviy bog'liq. Oliy ta'limda innovatsion faoliyatni tashkil etishdan asosiy maqsad pedagoglar jamoasi hamkorligi izchilligini ta'minash hamda uni aniq, maqsadga yo'naltirgan holda yo'lga qo'yishdan iboratdir. Bu ishda ham pedagogik, ham boshqaruv masalalari hal etiladi. Shuni qayd etish lozimki, pedagogik innovatsiyalar ishtirokchilari innovatsiyalarning yuzaga kelish, namoyon bo'lish jarayoni qonuniyatlari haqida metodologik, psixologik, pedagogik, texnologik bilimlarni puxta egallashi lozim. Aks holda pedagogik innovatsiyalar samarali natija bermaydi.

Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlar samaradorligi hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda Oliy ta'limda bakalavr o'qituvchilari tayyorlash sifati pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish shart-sharoitlariga, ta'limning an'anaviy usullari bilan maqsadga muvofiq, ravishda uzviy qo'llashga bog'liq. Ayrim hollarda samarali bo'lgan an'anaviy usullardan voz kechish holatlari sodir bulmoqda. Bu innovatsiyalarni tajribada sinalgan va ijobiy natija berib kelayotgan o'qitishga qarshi qo'yishdek sezilmoqda. Shuning uchun ham an'anaviy ta'lim tizimidagi ijobiy tajribalarni innovatsiyalarga uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Oliy ta'limda innovatsion texnologiyalar deyilganda turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o'zlashtirish va amalda tatbiq, etish jarayonini boshqarish tushuniladi. Ularda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar eng so'ngi innovatsiya

namunalarini joriy etish uchun moslashtirilgani bakalavr o’qituvchilarining ijodiy faolligini kuchaytirish uchun xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida ITTni qo’llashga bo’lgan qiziqish, e'tibor kudan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo’lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha ta'lim maqsadlari bakalavr o’qituvchilarinint faqat tayyor bilimlarni o’zlashtirib olishga qaratilgan bulsa, zamonaviy ITTlar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. ITTlar pedagogik jarayonda bakalavr o’qituvchilari faoliyatiga yangilik, o’zgartirishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol metodlar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bakalavr o’qituvchilarining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bu metodlardan foydalanganda bilim olish ular uchun qiziqarli mashgulotga aylanadi. Interfaol metodlar qo’llanilganda ular mustaqil ishlash ko’nikma va malakalariga ega bo’ladilar. Ular yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o’tkazish asosida o’zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bulingan holda ishlashadi. O’quv topshiriqlari alohida bir bakalavr o’qituvchilariga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikroguruhlarning har bir a'zosi Topshiriqni bajarishda o’z hissasini qo’shishga harakat qiladi. Bu holat ularda jamoa tug’usini shakllantiradi va tashabbuskorligini orttiradi. Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli deyiladi. Hozirgi paytda darsning xilma-xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar bakalavr o’qituvchilarining ijodiy qobiliyatini o’stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez hamda to’la qabul qila olish ko’nikma va malakalarini tarkib toptiradi. Dars jarayonida ITTni qo’llash ularda ilmiy izlanishga qiziqishni o’yg’otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko’nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq, etiladi, o’zlashtirish sifati oshiradi. Buning uchun pedagog mahoratli bo’lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to’g’ri rejalashtirishi, mashg’ulot davomida barcha bakalavr o’qituvchilarining faol va ongli ishlashlariga erishmoq lozim.

Innovatsion yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonida mashg’ulotlarni qiziqarli va samarali bo’lishini ta'minlaydi. Innovatsiyalarning samaradorligini aniqlashda bakalavr o’qituvchilarining fanlar, jo’mladan, fizika fani asoslarini o’zlashtirish natijalariga harab fikr yo’ritish zarur. Xozirgi paytda ularning bilim egallashlarida axborot kommunikatsiya vositalaridan keng ko’lamda foydalanilmokda. Aynikra, kompyuterda ishlash, turli tarmokdardan kerakli ma’lumot-larni izlab topish va o’zlashtirib olish ularning qiziqarli mashg`ulot-lariga aylanib bormokda. Faqat bunda kompyuter savodxonligi mukammal bo’lishi talab etiladi. Bu ham innovatsion yondashuv bo’lib, ularda maxsus bilim, ko’nikma va malakalar-ning tarkib topishini taqozo etadi.

Oliy ta'limning barcha io’nalishlarida informatika va axborot texnologiyalari dars sifatida o’qitiladi. Bu darslar bakalavr o’qituvchisi-larning eng qiziqarli mashg`ulotlariga aylanib o’lgo’rdi. Ularga kompyuterda ishlash ko’nikma va malakalarini o’rgatish bilan birga shu yo’na-lishdagi madaniyatni ham tarkib toptirilsa ma'ko’l budar edi. Ayrim bakalavr o’qituvchilari bilim olishdan ko’ra turli o’yinlarni o’ynashga, ommaviy madaniyat namunalaridan baxramand bo’lishga qiziq,adilar. Kompyoter tarmogidagi

innovatsiyalarni ta'lim-tarbiya olish uchun yo'naltirish Oliy ta'limdagi pedagoglar jamoasining dikkat markazida to'rishi zarur.

Pedagogik innovatsiyalar ma'lum miqdordagi vazifalarni x.al etish uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Xozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonidagi xilma-xillik, mustaqillik, onglilik, faollik, erkin va ijodiy fikrlash, o'zini namoyon etish, ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lish va yangilik yaratishga intilish bulajak bakalavr o'qituvchilarining to'rmush tarziga aylanib bormokda. Bu muammolarni hal qilishni eng samarali usuli ITTlar ekanligi ma'lum buldi.

Ta'lim jarayoniga ITTning joriy etilishi nafaqat nazariy sifatida, balki oliy ta'lim takomillashtirishga yo'naltirilgan maktad, tajriba shaklida qabul qilinishi kerak. Hech bir pedagog hamda ta'lim tizimiga befarq, bo'lmagan shaxs oliy ta'lim tizimi saloxiyatining oshishiga, uning takomillashishiga, sifatini jaxon andozalari talablari markasida shakllanishiga befarq, bula olmaydi. Ammo, bu o'rinda sohaga e'tiborni qaratish kerakki, amaliyotda oldimizga qo'yilgan vazifalarni to'la-to'kis bajarganimizcha yo'q,. O'rganib qo'ygan usullarimizdan qo'zgalishimiz qiyin kechmokda. Lekin, shunga qaramay ta'kidlash kerakki, ta'lim sifati muammolarining yechimini topish bizning asosiy vazifalarimizdan biriga aylanib qolmokda. Ta'lim sifatining yaxshilanishga sabab bo'ladigan omillar juda ko'p, ammo ularning ichida biz uchun eng samarali qo'llanilayottan ITTni qo'llashimiz va shu maqsada quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

**Birinchidan,** bevosita ta'lim sifat ko'rsatkichlari negizini tashknl etish; kasbiy ilmlarni o'rganishda bakalavr o'qituvchilariga qulaylik yaratadigan ITT usullarini qo'llash, katta va kichik guruxdardagi ularga amaliy ishlarida ko'maklashish; ularning o'zi foydalanayotgan ITT usullaridan qaysi biri olib borgan amaliy ishda yoki,yuqori samara berishi, bunda keltirishini tushunishini shakllantirishda yordam berishi kerak bo'ladi. Bakalavr o'qituvchilari o'zining amaliy va nazariy o'qish va o'rganish faoliyati davomida tatbiq, etishi mumkin bo'lgan ITTlar xakida batafsil ma'lumotga ega bo'lishi kabi xususiyatni shakllantirish asosiy vazifalardan biri.

**Ikkinchidan.** bakalavr o'qituvchilarini o'qishga o'rgatish, bu degani u o'zlashtirayottan nazariy bilimlarini nafaqat pedagog orqali, balki buron manbalardan ola bilishi, keng miqyosda tafakkur yorigchishi, buning uchun turli diagramma, slayd, distogramma va boshqa ITTda qo'llaniladigan manbalardan ola bilishiga o'rgatish lozim.

**Uchinchidan,** bakalavr o'qituvchilari mashg`ulotlar davomida mavzu bo'yicha ko'rgan turli ko'rgazmali diagramma va boshqa manbalarni yodda saqdab qolishi, uning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi, natijada ularning xaqi qanday mutaxassis bo'lib etishishi va mexnat bozorida talabgor bo'lishiga imkoniyat yaratiladi. Bakalavr o'qituvchilarida mustaqil mutolaa qilish, o'rganish, manbalar bilan ishlash kabi sifat ko'rsatkichlarini mukammal shakllantirishda har bir pedagog o'zining hissasini ko'shishi, ularni ragbatlantirish orqali qiziqishlarini ortgirishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq,. Chunki, pedagog qancha maxoratli, tajribali bulmasin, dars davomida interfaol metodlarni qo'llamasa, slayd, diagramma, distogramma va boshqa turli texnika vositalaridan foydalanmasa, uning barcha o'rinishlari befoyda bo'lib qoladi

Ta'lim sifatini ko’tarishning asosiy ko’rinishlaridan biri, bu oliy ta'lim muassasalarining fakultet va laboratoriyalarida ilmiy tadqiqot ishlarini keng ko’lamda olib borishning tashkil etilishini yo’lga qo’yishdan iborat. Chunki, bunday ilmiy izlanish ishlarini olib borish nafaqat professor-o’qituvchilarni qiziqtiradi, balki keng doiradagi bakalavr o’qituvchilarini jalb qilish natijasida ularni ilmga, fanlarni tularoq, o’zlashtirishlariga olib keladi.

Jaxonda tan olingan bunday tajriba bizning oliy ta'lim muassasalarida ham keng qo’llanilishi fanning o’zi uchungina emas, balki bakalavr o’qituvchilari uchun ham xizmat qilishini ta'minlaydi. Ularning keng miqyosda ilmiy izlanish faoliyatiga tortilishi, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini maksimal darajada ta'lim jarayoniga tatbiq, etishi va uni ta'lim bilan integratsiyasini ta'minlash, bunga erishish, institot — bulajak bakalavr o’qituvchilari izlanish modelini ta'minlaydi. Faqat shonday ta'lim tizimini yo’lga qo’yish orqali kelajak raqbatbardosh bakalavr o’qituvchilarining shakllanishini ta'minlashga zamin yaratiladi.

Bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashga innovatsion yondashuv, uning usullarini mukammal egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda fan mashg`ulotlarini bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadga muvofikdir.

**Birinchi bosqichda** fan xakida asosiy ma’lumotlar keltiriladi. **Ikkinchi bosqichda,** odatda, davr talablarining eng dolzarb, munozarali masalalari muxokama qilinadi. Izlang, fikrlang, ijod qiling tarzida ish ko’riladi. **Uchinchi bosqichda** ilgari so’rilgan nazariy qoidalar choqorlashtirilgan darajada bayon qilinadi. Ma’lumki, mustaqil ijodiy fikrlash o’qish mabaynida paydo bo’ladigaya qiyinchiliklarni engish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. **To’rtinchi bosqichda** teshari aloqa, boglanish uchun material beriladi. **Beshinchi bosqichda** bakalavr o’qituvchisi o’rgangan mavzularni to’gri tushuntanligini nazorat)qilinadi, ularda o’z-o’zini nazorat qilish uchun tog’ri shaqilarning turli shakl (og’zaki savol-javob, yozma va test) lari qo’llaniladi va tog’ri javoblar keltiriladi.

Topshiriqdar bakalavr o’qituvchilari aniq, xatti-harakatini anglatuvchi fellarda ifodalanishi darkor. Bunda o’zlashtirishning fikrlash darajalariga muvofiq, bo’lgan fellardan ko’proq foydalanishga aloxida e'tibor berish lozim. Chunki, ular materialning yuqori intellektuallik darajalarida o’zlashtirilishini ta'minlaydi.Har bir topshiriq faqat bir tushuncha yoki ko’rima harakatning o’zlashtirilganligini tekshirishi, hamda ixcham, tushunarli tarzda bayon qilinishi lozim. Aks xolda, bu bakalavr o’qituvchilari uchun qo’shimcha qiyinchilik to’gdiradi va o’quv motivlarini suaytiradi.

Topshiriqlar og’zaki savol-javob, yozma va test shakllarida tuzilishi mumkin. Bir maqsadga turli shakllardagi topshiriqlar tuzish ham samarali beradi. Chunki, bunda bakalavr o’qituvchilarining muayyan topshiriqni o’zlashtirganligiga oid bilimini xolisona baholash imkoniyati yaratiladi. Og’zaki savol-javob, pedagogning bakalavr o’qituvchilari bilan bevosita muloqoti bo’lib, bunda savollarga berilgan javoblar baholanadi.

Yozma topshiriqlar tuzish, tayanch so’z va iboralar variantidan foydalanishni nazarda to’gadi. Bu shakldagi topshiriqlarni tuzishda interfaol metodlarni qo’llab hal qilinadigan topshiriqlar miqdoriga ham e'tibor berish lozim. Chunki, klaster, sinkveyn, Venna diagrammasi, insert, kontseptual jadval, keys-stadi, T-sxemasini tuzish, texnik diktant yozish kabi interfaol metodlarni qo’llash bakalavr o’qituvchilarining fikrlash

qobiliyatini rivojlantiradi, o’quv materialining intellekto’allik darajalarida o’zlashtirilishini ta'minlaydi.

Yuqorida qayd qilingan va boshqa interfaol metodlardan o’quv jarayonida foydalanish bakalavr o’qituvchilaridan ijodkorlik faoliyatini, qolaversa, bu ishlarni Blum taqsonomiyasi darajalarida o’zlashtirgan bo’lishini talab qiladi. Interfaol metodlarni noto’gri qo’llash bu metodlar samaradorligini pasaytirishi yoki bu xakida noto’gri tushuncha paydo bo’lishiga sabab bo’ladi.

O’ziga ishonchni shakllantirmasdan mustaqil fikrlashni vujudga kel-tirish mumkin emas. Shu bilan birga o’ziga ishonchni anglash mustaqil fikrlashni taqozo qiladi. Har bir bakalavr o’qituvchisi o’z fikrining ahamiyatligiga ishonch xosil qiluvchi axborot olish uchun harakat qilishi zarur. Aks xolda, o’ mashg`ulotlarda o’zini so’et to’tadi va mustaqil fikrlay olmaydi-

Blum taqsonomiyasi test topshiriqlari tuzuvchilar uchun mavzu materiallarini o’quv maqadlarining qaysi toifasiga muvofikdigini aniqlashga ham qo’laylik yaratadi. Uni qo’llash natijasida identifikatsiyalanuvchi o’quv maqsadlarini aniqlash mumkin bo’lmagan darajalarda, ularni nisbatan umumlashgan shaklda ifodalab, test topshiriqlari tuzish imkoniyati tug’iladi. Yoki, avval o’quv maqsaddari taqsonomiya toifalari bo’yicha umumiyro’q shaklda aniqlanib, so’ngra ularga mos keluvchi va yakuniy natijani yaqolroq, ifodalovchi fe'l tanlanib, so’ngra test topshiriqlari tuzish mumkin. Test topshiriqlari tuzishda ham o’zlashtirishning reprodoktiv darajasidagi testlar mikdorining ortib ketmasligiga e'tibor berish zarur. Materialning ijodiy darajalarda o’zlashti-rilganligini aniqlovchi — ochiq;, bir necha to’gri javobli yopiq,, muvofikdikni aniqlovchi kabi test shakllaridan foydalanish muhimdir.

**Ochiq testlar.** Agar test topshirigi matnida uning tayanch so’zlari tushirib qoldirilgan bulsa, bunday topshiriq, ochiq, (to’gallanmagan) test deb ataladi. Bu shakldagi testlarda bakalavr o’qituvchilarining bitta, ikkita so’zdan iborat qisqa va aniq; javob berishlari taxmin qilinadi. Bu xakda testta ilova qilingan yo’llanmada bayon etish kerak. Blankaning bush joyida javob uchun zarur bo’lgan joy qo’oldiriladi.

**Yopiq testlar.** Bunday testlar savol va bir nechta javoblardan iborat bo’ladi, bu javoblardan biri to’gri, kelganlari tog’riga o’xshash, biroq, notog’ri bo’ladi. Taklif qilinadigan javoblar soni ikkitadan beshtagacha va undan ko’proq, bo’lishi mumkin; masalan:

Idishdagi suyoqlik qizdirilsa, suyuqlikning ichki energiyasi:

a) ortadi b) kamayadi

**Muvofiqlikka oid testlar.** Bu testlarning moxiyati bir ko’p sonli elementlarning boshqalariga muvofikdigini aniqdash zaruratiga asoslangan. Bu toshiiriklar «muvofiklik aniqlansin» degan ikkita so’zdan iborat konstruktsiya asosida tuzilishi lozim, masalan:

«DAMAS» avtomobili dvitatelidagi asosiy detallarni qo’yidagi mexanizmlarga muvofiqlik aniqlansin.

1. Krivoship-shaton mexanizmi. 2. Gaz taksimlash mexanizmi.

a) tirsakli val, b) koromislo, v) klapan, g) porshen, d) shaton, e) prujina, yo) qistirmalar, j) taksimlash vali, z) porshen barmoqlari, i) io’naltiruvchi vto’lka, k) xapkalar, l) tishli gildarak.

Pedagogik texnologiyaning bu tamoyilida bakalavr o’qituvchilariga individual xolda o’zlashtirishga imkon beriladi. Barcha bakalavr o’qituvchilarni iqtidorli deb qabul qilish darkor.

Bulajak bakalavr o’qituvchilarini tayyorlash jarayonini yaxshilash uchun qo’yidagi qoidalariga amal qilgan ma'qul: kuzatishdan so’ng o’z fikrini tezda bayon etish; o’z taassurutlarini qisqa, aniq, va mavzudan chetga chikmagan xolda gapirish; eng keskin suxbatlarda o’zini yaxshi his etish; so’xbatni ijobiy boshlash va yakunlash; suxbat chogida suxbatdoshini tushunishga harakat qilish; tanqidni eshitishga tayyor bo’lish kerak va x.k.

Shu bilan birga qo’yidagi natijalarga erishish ko’zda tutiladi: an'anaviy va noan'anaviy o’quv jarayonini bir-biridan farqlash, taxlil qilish, o’mumlashtirish, xulosalash va ularning asosiy kamchiliklarini aytib berish; o’qitishga ITT asosida yondashuvni va usullarini asoslab borish; ta'lim jarayoniga yangiliklar kiritish, unda ITTlar, interfaol metodlardan foydalanish hamda dars mashg’ulotlariga joriy etish zaruratini tushunish; yangi, zamonaviy innovatsion metodlar hamda ilmiy asoslangan tamoyillar va qonuniyatlar asosida ta'lim jarayonini shakllantirish; ta'lim jarayonini loyihalashtirish, maqsad va vazifalarni aniqdashtirish, bunda Blum toifalaridan foydalanish, elektron, multimedia tizimlari asosida ta'lim berish; tezkor va noan'anaviy metodlar asosida bilimlarni xaqoniy, aniq, baholash; o’qitilayotgan fandan tanlagan mavzu bo’yicha taxliliy yondashuv asosida referat yozish; o’zining o’qitadigan fani bo’yicha, o’qitishga ITT asosida yondashuvga mashg`ulot o’tkazishning uslubiy ishlanmasini loyihalash; ochiq; dars o’tkazish hamda unda o’qitishga ITT asosida yondashish va metod, shakl, usullar qo’llashni ko’rsatish.

Bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashga innovatsion yondashuvlar ularning metodik saloxiyati, kasbiy va ijodiy maxoratini oshirishga, bilim olishda muvaffaqiyatga erishishga ko’maklashadi. Shuning uchun ularni ITT asosida tayyorlashga yuqori darajadagi qizikish bo’lishi lozim.

Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakllari, metod va vositalari pedagogikada ta'lim jarayonlarini taxlil qilish uchun qo’llaniladigan an'anaviy kategoriyalar hisoblanadi. Aynan ugla kategoriyalar ma’lum bir predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo’yicha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeta sifatida yozaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofik. ravishda ionaltiruvchi pedagogik va o’quv faoliyatining qonuniyat va mezonlari tazimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Uzoq, yillar mobaynida ko’rsatilgan pedagogik kategoriyalar xajmi jamiyat talabi darajasida masadlarini ro’yobga chiharish uchun etarli bo’lib kelgan. Tan olish kerakki, pedagoglar ommasi o’z zamonasidagi pedagogik vaziyatni barcha davrlarda qoniqarsiz axvolda deb baholab kelganlar. Bu o’rinda pedagogik tushunchalarning ta'rif va tavsif-larining noaniqligi, ta'lim jarayonlarini tavsiflovchi ba'zi kategoriyalarning etishmasligi, ta'lim maqsadi, mazmun, shakl, uslub va o’qitish vositalari o’rtasidagi o’zaro o’zviylikning mavjud emasligi hamma vakl tanqid ostiga olib kelingan "metodika" tushunchasi yqori darajadagi sub'ektivlikka ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Aytib o’tilgan fikrlar bizningcha, ikkita muammoni ochib beradi, **birinchidan,** kasbiy pedagogik ma’lumotga ega bakalavr o’qituvchilarining kasbiy layoqatlilik darajasi, **kkkinchidan,**

maxsus pedagogik tayyorgarlikka ega bulmaslik, kasbiy maxorati, savodxonlik darajasining pastligi.

Pedagogik jarayon moxiyati pedagog va bakalavr o’qituvchilarining muayyan faoliyatida o’z aksini topadi. Bunda pedagog ularga qiyinchiliklarni engib o’tish uchun yordam beradi. Pedagog ularga e'lon qilgan, ko’rsatgan, eslatgan, tushuncha bergan, yo’naltirgan, maslaxat bergan, bartaraf ettan, ilxomlantirgan, qiziqishini izxor qilgan, talabchanlikni qo’llab-quvvatlagan xollardagina yordam beradi.

ITTlari majmuaviy integrativ tizimlar bo’lib, ta'lim maqsadi bilan belgilangan kasbiy ko’nikma, malaka shaxsiy xislatlarini o’rganuvchilar tomonidan egallanishi, bilimlar o’zlashtirishga yo’naltirilgan operatsiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to’plamini o’z ichiga qamrab oladi. Bu o’rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmunni tanlash va ishlab chiqishga joriy etish (nima?), ta'lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta'lim metod va vositalarini belgilash (nimalar yordamida?), shunindek, pedagoglar malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metoda (qanday yo’l bilan?) va boshqalarga asoslanish lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy qo’llanilishi o’quv jarayonining moxiyati va uning texnologiyasini belgilab beradi.

O’qitish texnologiyasini loyihalapshi pedagogik vazifaning qo’llishi va uning hal etilishi asosida ko’rib chikdmiz.

Pedagogik vazifaning belgilanishi qo’yidagilar bilan izohlanadi: ta'lim maqsadlarini taxlil qilish, shu asosida o’quv predmeti mazmunini aniqlash; o’quv predmeta mazmuni tuzilmasini ishlab chiqish va uni o’quv elementlari tizimi ko’rinishida ifodalash: o’quv elementlarining o’zlashtirilish darajalarini belgilash; bakalavr o’qituvchilarining dastlabki bilim darajasini aniqlash, bu ko’rsatkich o’quv predmetining mazmuni asoslanadigan o’quv materialining o’zlashtarganlik darajasidan kelib chaqadi; o’quv-moddiy bazasi hamda ta'limning tashkiliy shakllariga qo’yiladigan chegaralarni belgilash.

Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o’qitish texnologiyasini loyidalashda qaratilgan pedagog faoliyati ta'limning metod, shakl va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagog faoliyati uchta asosiy tashkl etuvchi tular bilan tavsiflanadi: axborot almashinuv jarayonining turi, axborotni uzatish vositalari tiplari va bilish faoliyatini boshqarish. O’qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish kontseptsiyasiga asoslanib, uni tashkillashtirishni qo’yidagi mantiqiy ketma-ketlik asosiga ko’rish mumkin. Dastlab o’quv materiali mazmunining tavsifi, uni o’rganishdan ko’zlangan maqsad (o’zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo’yilish shartlari taxlil etiladi. So’ngra, o’qitishning mos ravishdagi metodlari hamda bulajak bakalavr o’qituvchilari bilish faoliyatini boshqarish sxemasi belgilab olinadi. Shu asosda o’qitish vositalarining ro’yxati tuziladi. Ushbu usul bilan xosil qilingan ta'lim metodlari va vositalari tizimi tashkiliy shakllar bilan u’yg’unlashtiriladi, ya'ni texnologiya ishlab chiqiladi.

Tatbiqiy innovatsion texnologiyalar oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga yo’naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodik darajada hal etishga qaratiladi. Bugungi kunda tatbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondashuv tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarning hal eta olishga oid innovatsion texnologiya-larni ishlab chiqishga extiyoj yuzaga kelmokla. Ilgaridan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya

jarayonining innovatsion texnologiyasi o'zida metodlar tizimi, maqsadi, metodik usul va pedagog hamda bakalavr o'qituvchilarining birgalikda faoliyat ko'rsatish vosita imkoniyatlarini mujassamlashtiradi.

O'qitish texnologiyasi — bu tizimli kategoriya bo'lib, ilmiy ta'limotning didaktik qo'llanishiga, bakalavr o'qituvchilarining innovatsion emperik yondashuvlari asosida ta'lim tizimini tashkil etish va taxlil qilishni ilmiy asoslashga, ularni rivojlantirishda yuqori natijalarga erishishga yo'naltirilgan jarayondir. Ta'limning bu ko'rinishi qo'yidagi asosiy qismlardan tashkil topgan: ta'limning maqsadi; ta'limning mazmuni; o'qitishning motivatsiyasi va vositalari; o'qitish jarayonini tashkil etish; bakalavr o'qituvchilari; pedagog; faoliyat natijasi.

Ta'lim texnologiyasi o'zaro o'zviy bog'langan ikki jarayonni o'z ichiga oladi: o'qitiladigan shaxsning faoliyatini tashkil etish; faoliyat ustidan nazoratni tashkil etish. Ta'lim texnologiyasini o'rganishda zamonaviy elektron vositalarga to'xtalmay bulmaydi. Ularni ta'lim innovatsiyasining strategik elementlari deb atash mumkin. Odatiy ta'limda o'qitishning fanlararo modeli xos bo'lib, o'nda fanlar keragidan ortiq, ma'lumotlarga ega. Innovatsion o'qitish strategiyasi ta'lim-tarbiya jarayonini shunday tashkil etishni ko'zda tutadiki, unda avvalgiday pedagog etakchi element hisoblanadi, faqat bakalavr o'qituvchilariga va o'ziga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Shu bilan bir qatorda ularning yondashuvi ham o'zgaradi.

**Zamonaviy innavatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq**, etishda ko'p faktorlar salbiy ta'sir etadi, ularga: ta'lim muassasalarining komp'yo'terlar va elektron vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi uning etarli emasligi; ular internet va boshqa axborot tarmoqlariga ulanmaganligi; ilmiy-uslubiy manbalarning etarli emasligi (elektron qo'llanmalar, laboratoriya va ishlar, testlarning etarli emasligi); pedagoglarning zamonaviy kompyter texnikasi bo'yicha malakasining etishmasligi; bakalavr o'qituvchilarining ham komp'yo'terdan etarli foydalana olmasliklari, elektron kitoblar bilan ishlashni bilmasliklari;

Ta'limda yo'l qo'yilayotgan bunday kamchiliklarni bartaraf etish omillari qo'yidagicha: ITTni o'rganish uchun bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashni tashkil etish; multimedia o'quv qo'llanmalari ishlab chiqqan pedagoglarni ragbatlantirish; internet tarmog'i orqali **on-lain** konferentsiyalar, seminarlar va boshqa o'qitish tadbirlarini tashqil etish; ta'lim muassasalarida multimedia sinflari, laboratoriyalar va kitubxonalar sonini ko'paytirish; internet va boshqa elektron o'quv vositalari byicha o'qitish akademik soatlari mikdorini ko'paytirish; bakalavr o'qituvchilari bilan zamonaviy axborot texnologiyalari xaqida ko'proq, ilmiy tanishtiruv ishlarini olib borish. Bunday tadbirlarning o'tkazilishi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki bunda bilimning ommalashuviga erishiladi. Innovatsion texnologiyalar faqat ta'limni ommaga etkazib qol may, balki uning sifatini oshirish, bilim olish, moddiy jihatdan unga erishish uchun sharoit ham yaratadi.

Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichida ta'limni samarali tashkil etish, uni yuqori sifat bosqichlariga ko'tarish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga aloxida e'tibor qaratildi, ular: ta'limni jadallashtirish, uning mazmun va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy ta'lim texnologiyalari foydalanish; ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy metod, usul va shakllarini ishlab chiqish hamda

amaliyotta joriy etish; har bir ta'lim yo’nalishi bo’yicha fanlarni o’qitishda ketma-ketlikni aniqdash, muammoli Topshiriqdarni tuzish hamda ular asosida uslubiy tavsiya va ko’rsatmalarni tayyorlash, ITTning eng ilgor turlarini qo’llash, uni tajriba-sinov natijalariga harab o’quv jarayoniga keng tatbiq etish; axborotlarning keskin ko’payib borayottanligi to’fashsh ularni yoshlarga etkazishni samarali yo’llarini izlash. Shu bilan birga, milliy Dasturnint kamchiliklar va muammolar ktsemida: pedagog-o’qituvchilarnint kattagina kiem i yaxshi tayyorgarlik ko’rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi jidtsiy muammoligi, malakali kadrlar etishmasligi, ta'lim jarayoni hamda o’qitish uslubiyatidagi har xil kamchiliklar borligi aloxida ta'kidlangan eda. Shundan kelib chikdan x°DDa, xozirgi ko’nda barcha fanlar xatori fizika fani o’qituvchilarini tayyorlash jarayonida Ham ziddiyatlar mavjudligi aniqdanda, ular: fizika fanidan bakalavr o’qituvchilarining faol ta'lim olish shakllariga bo’lgan extiyojining pedagoglar tomonidan to’la xondirilmayotganligi; fizika fani o’qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, ta'limning mazmuni, metoda, zamonaviy vositalarini bilishda talab etiladigan bilim va ko’nikmalarining talab darajada emasligi; fizika fani o’qituvchilari tomonidan bakalavr o’qituvchilarini tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida fizika o’quv rejasidagi mavzularni integratsiyalashning bu faoliyatni tashqil etish jarayonida xayotiy ko’nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlari etarlicha amalga oshirilmaganligi.

Shunday ekan, fizika o’qituvchilarini ITGlar asosida tayyorlash, bu soxadagi ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biriga aylanmogi darkor. Chunki, mazkur muammolar, ularni hal qilish, o’qituvchiga, uning pedagogik ilmiy malakasiga, bakalavr o’qituvchilarini bulajak kasbiy faoliyatini samarali tashqil etishga boishkdir. Xo’ko’matimiz tomonidan keyingi vakglarda ta'lim sohalarini rivojlan-tirishga oid xator xujjatlar xabul qilindi. Mazkur xujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimini takomil-lashtirish, yo’qsak kasbiy, ma'naviy va axlokiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali o’qituvchi kadrlar tayyorlash ko’zda to’tilgan. Bu ta'lim-tarbiya soxasining rivojlanishi uchun ITTlar asosida fizika o’qituvchilarini tayyorlash jarayonini loyihalash va uni amalga oshirishga etarli e'tibor berish kerakligidan dalolat beradi.

Fizika o’qituvchisini ITTlar asosida tayyorlash dolzarb muammolardan biri. Chunki, ta'lim-tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil etish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish ularning birinchi navbatdagi vazifalardan biridir. Bu vazifalarini hal etish pedagogning g’oyaviy e'tixoda, kasb maxoratiga, sanati istedodi va madaniyatiga bog’liqdir.

Shunday ekan ITTlar asosida fizika o’qituvchisini tayyorlash jarayonining har bir bosqichida ta'limni samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko’tarish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirish lozim. Chunki, kuchli va mustaxkam ta'lim-tarbiyani faqatgina fan o’rnatgan obektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirilada. Bu, albatta, ITTga murojaat qilishni talab etadi.

Pedagog o’z darsini an'anaviy usulda yoki zamonaviy ITT metodlari bilan o’tishi mumkin. U an'anaviy usulda dars o’tganda, oxirida pedagog o’z maqsaddariga erishganligini aniqlay olmayda. Oqibatda dars sifati pasayadi, darsdan ko’zlangan maqsad amalga oshmay qoladi. Afsuski, haligacha ta'lim muassasalarida darslar asosan an'anaviy usulda o’tilmoqda. Xozirgi an'anaviy darsni mazmunan yangilash va ta'lim-

tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o’zgartirish, zamonaviy dars samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida ITTni qo’llagan xolda dars o’tish davr talabidir. Dars samaradorligini oshirishda pedagog avvalo maqsadni belgilab olishi, an'anaviy va zamonaviy darslarning farqini ko’ra olishi shart.

Zamonaviy darslardan maqsad — bakalavr o’qituvchilarining o’zlashtirish ko’rsatkichini ko’tarish uchun fizika fanini o’qitishda mashg’o’lotlarni yanada mazmunli, qiziqarli va tushunarli o’tkazish, bakalavr o’qituvchilari faoliyatiga yangilik kiritib, interfaol metodlardan foydalanish hamda o’z-o’zini tez va samarali baxrlashga erishishdi. Shu bilan birga zamonaviy darslar bakalavr o’qituvchilarini mustaqil fikrlay olishga, ijod qilishga, izlanishga, taxlil eta olishga, o’zlari xulosa qilib, o’z-o’zini baholay olishga o’rgatadi. Pedagog ularning bu faoliyatiga imkoniyat va sharoit yaratib bera olishi kerak. Bu esa o’qitish jarayonining asosi hisoblanada.

ITTdan foydalanilganda har bir dars mavzusining o’quv maqsadlari aniqlashtirilib, unga erishish uchun bakalavr o’qituvchilari faoliyati qatiy belgilangan ketma-ketlik bo’yicha, har bir mavzu bulagini o’zlashtirishiga qaratiladi. Darslarni ana shunday tashkil etish o’qitish tizimining barcha asosiy tomonlarini, maqsadni aniqlash, o’qitish samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o’tkazish va ommalashtirishgacha bo’lgan jarayonni o’z ichiga oladi. Chunki maqsadlar aniqlanganda, **birinchidan,** ularga erishilganlikni aniq bilish imkoniyatiga ega bulinadi, **ikkinchidan,** test topshiriqlari bu maqsaddarga muvofik xolda tuzilganda mashg`ulotning mazmunini to’la qamrab olishga erishilada, u**chinchidan** esa aynan bir mashg’ulot maqsaddarining bir xil va aniq bo’lishi barcha fan pedagoglarining bir xil natijaga erishishlarini kafolatlayda. O’quv maqsadlarini belgilashga yoqorida qayd qilingan aniqlikni kiritish, pedagogik texnologiyaning an'anaviy o’qitish usullaridan tubdan farq qiluvchi eng muhim jihatlaridan biri bo’lib hisoblanadi. Bu esa, o’z navbatida, bakalavr o’qituvchilari shaxsining rivojlanib borayotganlik darajasini hamda pedagog faoliyatidagi kamchiliklarni o’z vaqtida aniqdab, ularni bartaraf qilish, demakdar.

O’quv maqsadlarini belgilashning eng ilgor usuli B.Blum taqsonomiyasi (tartib bilan joylashtirish)dar. Uning yordamida pedagog nafaqat o’quv maqsadlarini aniqdashtirishga, balki ularni o’zaro bog’lik bo’lgan qat'iy ketma-ketlikda joylashtirishga muvaffaq bo’ladi.

Maqsadni aniqdash, ta'lim jarayonini loyihalashdan tortib, to uning samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o’tkazish hamda ommalashtirishgacha bo’lgan jarayonni o’z ichiga oladi. O’quv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarning eng muhimi hisoblanadi. Darxaqiqat, bu jarayon, o’zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qatiy nazar, eng avvalo maqsadni aniqdashdan boshlanadi. Tamoyil, mazmun, uslub, shakl kabi tashkil etuvchi qismlar esa belgilangan maqsadga muvofik, tanlanadi va o’zaro uygunlashtiriladi.

Maqsadlarni o’zaro bog’liqlik ketma-ketligida joylashtirishni birinchi bo’lib, AQShlik B.Blo’m ishlab chiqan va unda o’quv maqsadlarining **kognitiv** (bilishga oid) soxada ifodalanishi bayon etilgan hamda jaxonda tan olingan.

***Kognitiv soxa*** — o’rganilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berishdan boshlab, to o’zlashtirilgan bilimlarni mustaqil to’la anglab, ularni oldin o’rganilgan

uslub, usullar bilan uygunlashtirgan holda tasavvur etishgacha bo’lgan muammolarning hal etilishini o’z ichiga oladi.

B.Blumning kognitiv taksonomik toifalariga bilish, tushunish, qo’llash, taxlil, sintez, baholash kiradi. Bundan tashqari, o’quv maqsadlarini affektiv va psixomotor soxadagi toifalari ham mavjud. ***Affektiv*** (hissiyotta oid) ***soxaga*** oddiy idrok qilish, qiziqish, qadriyat yo’nalish va munosabatlarini o’zlashtirishga tayyor bo’lishdan boshlab, to bakalavr o’qituvchilarini atrof-muxitga nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatda bo’lishini shakllantiruvchi maqsadlar kiradi. ***Psixomotor*** (harakatga oid) ***soxaga*** yoki bu harakat faoliyatida harakat yo’nalishlarini tez va chakdon o’zgartirish, asab-muskullarni muvofiqlashtirib boshqarishni shakllantirishga oid maqsadlar kiradi.

Maqsadlarning aniq, tartibli turkumini yaratish pedagoglar uchun juda muhimdir. Buning sabablari qo’yidagicha:

— **o’quv jarayonida asosiy e'tiborni maqsadga qaratish.** Pedagogik taqsonomiyadan foydalangan xolda nafaqat bu maqsadlarni, balki asosiy vazifalarni, bundan keyingi faoliyatining tartibi va borishini ham bel-gilashi mumkin.

— **pedagog va bakalavr o’qituvchilari hamkorligidagi faoliyatning aniqligi hamda oshkoraligi.** Aniq maqsadlar pedagog uchun bakalavr o’qituvchilarining umumiy faoliyatidagi asosiy yo’nalishlarini tushuntirish, muxokama qila olish imkoniyatini beradi.

— **o’quv natijalarini baholash tizimini yaratish.** Faoliyat natijalari orqali aniq ifodalangan maqsadlar, ularni ishonchli va xolisona baholash imkoniyatini yaratadi. Taqsonomiya tuzish pedagoglar faoliyati samarasini oshirishning muhim omillaridan biri bo’lib hisoblanadi. Ular bu usulni qay darajada tezkor egallasalar, ta'limning ilg’or tajribalari bilan jadallashtirishga o’z hissalarini qo’shgan bo’ladilar. Maqsadlarning bunday ifodalanishi natijasida o’zlashtirish monitoringa vujudga keladi.

O’quv maqsadlarini bu taqsonomiya asosida aniqlashtirish ikki bosqichda bajariladi. **Birinchi bosqichda** umumiy, **ikkinchi bosqichda** esa o’quv faoliyatining maqsadlari aniqlanadi. Qismlarga ajratib aniqdashtirilgan maqsadlar jadval shaklida rasmiylashtiriladi, ustunda fanning bulimlari yoki o’quv vazifalari, qatorda esa bakalavr o’qituvchining o’zlashtirishdagi intellekto’al faoliyatining asosiy turlari joylashtirilada.

Identifikatsiyalanuvchi maqsadlarga erishilganlik xaqida bakalavr o’qituvchilarining faqat tashki ifodalangan faoliyati va uning maxsuli (javobi, masalani echishi, mexanizmlarni qismlarga ajratishi va yigishi, texnologik jarayonning borish ketma-ketligini aniqlashi kabilar) bilangina aniq xukum chiqariladi. O’quv natijalarini identifikatsiyalashda pedagog bakalavr o’qituvchilarining tashqaridan kuzatiladigan harakati bilan ifodalangan asosiy e'tiborni qaratishi kerak. Bu texnologiya bixeviorizm (xatti-harakat) g’oyasi va uslublari ta'sirida vujudga kelgan. U amaliy yo’nalishga ega bo’lib, faqat uning tashqi ifodalangan va kuzatish imkoniyati bo’lgan xatti-harakatini taxlil qilishdan iborat, deb tasavvur qiladi. Bixevioristik talqinidagi o’qitish qoidalari qo’yidagilardan iborat: o’quv materialini iloji boricha aloxida qismlarga ajratish; o’quv elementlarini faoliyatda namoyon bo’lishining barcha ko’rinishlarini e'tiborga olish; ijobiy reaktsiyani tezkorlik bilan mustaxkamlash (nazorat-tuzatish); mashg’ulotlarni (xatti-harakatlarni) ko’p marta takrorlash orqali yuqori o’zlashtirish ko’rsatkichiga erishish mumkin.

O’quv maqsadlarini to’la identifikatsiyalash va qatiy bir xil manoda ifodalash, bakalavr o’qituvchilari faoliyatini ananaviy tarzda emas, balki ularni tashqaridan kuzatish hamda aniq xatti-harakatlari orqali ifodalashni bildiradi. O’quv natijalari, uni aloxida tarkibiy qismlarga bo’lishga hamda ularni ketma-ket o’rgatishga imkoniyat bersa, bu xolda bixevioristik sxemaga to’la amal qilish mumkin (masalan, ishlab chiharish operatsiyalarini o’rgatish, turli mashg’ulotlarni bajarish kabilar). Bu ayniqsa, bakalavr o’qituvchilarining mexnat operatsiyalarini aloxida qismlarga ajratib bajarishlari natijasida kasbiy malakalarni shakllantirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O’quv maqsadlarini aniqlashtirishning umumiy usuli, ularni aniq natijalarga erishishdagi harakatlarini anglatuvchi fe'llarda ifodalahdir. Masalan, bulajak bakalavr o’qituvchisi mavzuni o’qib, o’rganganidan keyin: mavjud ma’lumot va xulosalarni bir-biridan farqdaydi; dalil va taxminlarni biladi; sabab, oqibat aloqalarini ajratib ko’rsatada; muloxazalardagi xatoliklarni aniqdaydi; xodasa moxiyatiga bog’lik bo’lmagan muhim fikrlarni ajratada; asoslangan va asoslanmay berilgan baholar chegarasini aniqdaydi; mavzu bo’yicha xulosa yozada.

Har bir pedagog o’zining shaxsiy tajribasi va fikrlashidan kelib chikdan xolda, sanab o’tilgan harakatni anglatuvchi belgilardan mosini tanlashi mumkin.

Endi aniqdashtirilgan maqsadlarning bir necha turlari bo’yicha fe'llar ro’yxatini keltiramiz:

**1. Umumiy maqsadlarni ifodalovchi fe'llar:** taxlil qilish, hisoblash, fikrni aytish, namoyish qilish, bilish, baholash, tushunish, o’zgartirish, foydalanish, yaratish va x.k-

**2. Ijodiy to’rdagi maqsadlar uchun qo’llaniladigan fe'llar:** bir shaklni turli ko’rinishlarda takrorlash, shakllarni o’zgartirish, takomillashtirish, oldindan aytib berish, savol qoyish, qayta tashqil etish, sintez qilish, tizimlashtirish, soddalashtirish va x.k.

**3. Ogzaki va yozma nutq. soxasini anglatuvchi fe'llar:** muloqatga kirishish, fikrni ifodalash, rozilik bildirish, maqtov, xamkorlik qilish, tabassom qilish, ishtirok etish va x,.k.

Fe'llarning yo’q,oridagiga o’xshash ro’yxati boshqa sohalar — umumiy mantiqiy operatsiyalar bo’yicha ham o’quv maqsadlarini aniqlashtirishda tuzilishi mumkin. Pedagogik texnologiya tarafdorlari har bir mashg’ulotning maqsadlari, undagi yangi o’quv birliklarining soniga mos bo’lishi va ularni bakalavr o’qituvchilarining tashqaridan kuzatiladigan xatti-harakatlari orqali ifodalashni taklif qiladilar. Bunday birliklar soni har bir mashg’ulotda 6-7 ta bo’lishi maqsadga muvofik,, aks xolda, ortiqcha axborotlarni ular to’la idrok va xotirada saqlab qola olmasliklari mumkin. Masalan: «Ko’tarish mashinalari va kichik mexanizmlar» fanining «Mashina detallari» to’grisida umumiy ma’lumotlar mavzusi bo’yicha mashg’ulotning aniq dastirilgan maqsadlari qo’yidagilardan iborat bo’lishi mumkin.

